

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BADIIY GRAFIKA, MUSIQA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI

UMUMTEXNIKA FANLARI KAFEDRASI

To'rayeva Gullola

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XALQ HUNARMANDCHILIGINI
O'RGANISH USULLARI**

«5142000-mehnat ta'limi» yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: dots. O.Eshniyozov

Bitiruv malakaviy ishi «Umumtexnika fanlari» kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil “___” _____dagi majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №___).

Kafedra mudiri:

dots. O.Eshniyozov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “___” _____dagi majlisida
himoya qilindi va ___ ball bilan baholandi (bayonnoma №___).

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2014

R E J A :

Kirish

1-bob. Ta'lim–tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganishning tarixiy rivojlanishi

1.1. Xalq hunarmandchiligining paydo bo'lishi va taraqqiyoti

1.2. Xalq hunarmandchiligi o'rganish va o'rgatish pedagogik muammo sifatida

1.3. Ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganishning hozirgi davrdagi ahvoli

2–bob. Umumiy o'rta ta'lim tizimida xalq hunarmand-chiligini o'rganishning mazmuni, tuzilishi

2.1. 1–9 sinflar mehnat ta'lim darslarida xalq hunarmandchiligini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari

2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv–tarbiyaviy tadbirlarda xalq hunarmandchiligini o'rganishning mazmuni

2.3. O'quvchilarning mehnat ta'limida xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish darajasini aniqlash mezonlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllanishida jamiyatimiz rivojlanishining barcha ma'naviy va moddiy ishlab chiqim sohalarida tubdan o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar jamiyat kelajagi taraqqiyoti poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi uzluksiz tizimini ham butkul islox qilish, yangicha mazmun va shakl barpo etish tabiiy zaruriyatini paydo qilmoqda.

«Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu sohadagi amaliy ishlarning debochasidir. Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu sessiya «Barkamol avlod– O'zbekiston taraqqiyoti poydevori» mavzusida qilgan ma'ruzalari respublikamizning uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilishning, yangilashning asosiy yo'nalishlarini belgilab berishga xizmat qiladi. Jumladan, Prezident yosh avlodni tarbiyalash, ularga turli bilimlar berish xalqimizning amaliy qadriyatlaridan ekanligini ta'kidlab. «Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom. Barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimiz» ekanligini aytib o'tdilar.

Yoshlarni hayotiga, mazmunli mehnatga va aniq tanlangan kasblarga tayyorlash vazifasini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi, aniqrog'i, uzluksiz mehnat va kasb ta'limi tizimi bajaradi.

Uzluksiz mehnat va kasb ta'limi tizimida ajdodlarimiz hayotiy tajribalaridan foydalanish, urf-odatlar, milliy aqidalar, moddiy va ma'naviy meroslarini o'rganish va bu muhim sohani butunlay tubdan qayta qurishni, o'zligini namoyon etishni taqozo etadi. Bu tizimda avlodlarimiz xalq hunarmandchiligi meroslarini o'rganish, amalda qo'llash va o'rgatish, mehnat va kasb ta'limi sohasi tarixiy, etnik, milliy, mahalliy, demografik, xududiy jihatlardan o'zligini kashf etilishi, islox qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

«Xalq hunarmandchiligi – har bir moddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli maxsulotlar ishlab chiqarish, shunday maxsulotlar tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi» (Uz SE. 14-tom. 470-b.). Xalq hunarmandchiligi kishilik jamiyatining paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan vujudga kelib, dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqadi. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat vazifalari taqsimoti, tayyorlanadigan buyumlar xususiyatiga ko'ra hunarmandchilikning 3 yo'nalishi keng taraqqiy etdi. 1. Uy hunarmandchiligi; 2. Buyurtma bilan maxsus

tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3. Bozor uchun maxsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Umuman olganda hunarmandchilik yuqoridagi 3 yo'nalishda, turli sur'atda va kulamda taraqqiy etgan 200 dan ziyod yirik sohalari, turli mavjud bo'lgan, ammo, tarixiy taraqqiyot jarayonida, ehtiyoj, sharoit va imkoniyatga qarab, hozirda 150 dan ziyod tarmog'i sohasi mavjudligi ma'lumdir.

Usib kelayotgan yosh avlod mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish uchun ushbu sohaning barcha sohalarini chuqur isloh etishi zarurdir.

Hozirgi davrda xalq hunarmandchiligini o'rganishga va o'rgatishga davlat va xukumatimiz rahbariyati ham jiddiy e'tibor bermoqdalar. Prezidentimizning 1997-yil 31-martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirish davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida, jumladan, shunday deyiladi: «...yoshlar xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish Qoraqalpog'iston Respublika Vazirlar Kengashi viloyat, shahar, tuman xokimliklarining, respublika vazirliklari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin».

Iqtisodiy va ijtimoiy uzgarishlar go'rkirab davom etib turgan hozirgi davrda mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini mustaqil soha sifatida o'z urnini belgilab berish, nazariy va amaliy imkoniyatlarini taqdim etish, ushbu tizimning uzligini namoyon qilishdan tashqari buyuk o'tmishga, buyuk tarixga va buyuk tajribaga ega bo'lgan, ammo, hozirgi davrda mukammal tizim asosida, muayyan tartib bilan o'rganilmayotgan va o'rgatilmayotgan xalq hunarmandchiligi taraqqiyotiga, uning jahon madaniyatida yorqin yulduz bo'lib porlashiga imkon yaratadi.

Xalqimizning uzoq o'tmish tarixi, kelib chiqishi moddiy ne'matlar yaratish asosi bo'lgan xalq hunarmandchiligi taraqqiyot rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Dastlab oddiy, kundalik ehtiyojlar uchun sodda ov qurollari, nayza, bolta va boshqa moslamalarni toshdan yunib yasagan ibtidoiy odamlar, davrlar o'tishi bilan mehnat qurollarini ishlov berishga qulaylashtirib, mustahkamligini oshirib borganlar. Insoniyat taraqqiyot natijasida oddiy kundalik turmush qurol va moslamalari moddiylikdan ma'naviy boylikka, bebaho san'at asarlarigacha yetkazib yasash taraqqiy etgan. Va bu uzoq davom etgan taraqqiyot arxeologik qazishmalar yordamida topilgan buyumlar sifatida, yozma va og'zaki manbalarda ta'riflanib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Xalqning ijodkor va

moxir, iqtidorli vakillari tomonidan yaratilgan moddiy meroslar ma'naviyatimiz durdonalariga aylanib bordi. Sharq mamlakatlari kuxna tarix silsilalarida bo'lgan ma'naviy, ilmiy taraqqiyotni butun dunyoga taratdi. Shark mamlakatlarida butun dunyo allomalari tan olgan mutafakkirlar, san'at ustalari, allomalar, donishmandlar saloxiyatlari asosida yaratilgan asarlari asosida, bu ulkaning, bu yurtning, bu xalqning shuxrati butun olamga yoyildi. Madaniyat va ma'naviyatimizning taraqqiysi VIII asrlarga kelib va X asrlarda dunyo madaniyatida yangi davr – ilk uyg'onish davrini, o'ziga xos Repessensni asos solinishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Ko'p asrlar davrida taraqqiy etib, yuzaga kelgan va 200 dan ziyod tarmoqqa ega xalq hunarmandchiligi texnika, texnologiya sivilizasiyasi davrigacha (XVIII-XIX asrgacha) asosiy ishlab chiqish sohasi bo'lib keldi. Texnika, texnologiyaning tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi ba'zi sohalar yuqolib, ba'zilari yalpi sanoat miqyosidagi ishlab chiqarishiga singib ketdi. Masalan, sovutchilik, nayzalar ishlab chiqarish yuqoladi va xususiy qog'oz ishlab chiqarish, tufangdozlik (tuqlar qo'yish), muxrkandlik, sim chuzuvchilik, mixchilik kabi hunarmandchilik turlari sanoat ishlab chiqarish tarmog'iga aylantirildi. Ammo, 150 dan ziyod yo'nalishda hunarmandchilik sohalari xalqning o'lmas ijodiy, ma'naviy-moddiy boylik, san'at asari, bebaho meros yaratish sohalari darajasida rivojlantirilib, buyuk hunarmand sulolarining xayot ko'rinishi tarzida davom ettirilib kelmoqda. Hunarmandlarning buyuk sulolarida avlod-dan-avlodga ma'lum bir yoki bir necha turturdosh, yaqin hunarlarni o'rgatib borish, ota-bobolar kasbini davom ettirish, bolalarga hunarlarni o'rgatish, inson sifatida shakllantirish urf-odat bo'lib kelgan. Masalan, Urgutdagi kulollar sulolasi tarixi 500-600 yilga borib taqaladi, hozir ham bu kasbni ulug'lab kelmoqdalar, Urganji (Buxoro) dagi buyraboflar sulolasi ham hozirgi avlod vakillari shu yo'nalishdagi hnarmandchilik kasblarini egallamoqdalar hamda davom ettirmoqdalar.

Hozirgi davrda butun dunyoga mashhur xalq ustalari avlodlari yaratgan hunarmandchilik buyumlari o'z soxalari bo'yicha o'tkazilgan va o'tkazilayotgan xalqaro va respublikamiz ko'rgazmalarida doimiy g'oliblar sifatida ulug'lanmoqda. Ammo, buyuk ustalarimizning tarixi, tajribasi, faoliyat mazmuni, usuli, ijodiy yo'li, mahorat sirlari ta'lim tizimida mukammallashgan holda o'rganilmasdan va o'rgatilmasdan kelinmoqda. Bu sohadagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlar faqat turli to'garak va ustaning o'ziga shogird tushib o'rganish kabilar bilan cheklanibgina qolmoqda. Kuzatishlarga

qaraganda, pedagogik tajribalar va ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimida juda yirik tarbiyaviy, ta'limiy va vaqt zahiralarga ega bo'lgan mehnat va kasb ta'limi sohasi xalq hunarmandchiligini bevosita tizim holida o'rganish va o'rgatishga har tomonlama mos keladigan soha hisoblanadi. Yoshlarning mehnat va kasb ta'limini o'rganish sifati butun ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishini aniqlash ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimiz asosan, yoshlarning mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi va tayyorgarligini takomillashtirishga bag'ishlanganligi sababli, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqot ishimiz, chop etilgan materiallar, biz uchun ahamiyatlidir.

Respublikamizda mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi va tayyorgarligi turli sohalarni tadqiq qilish bo'yicha pedagog olimlardan U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.Sh.Shodiyev, N.S.Saidaxmedov, A.R.Xujaboyev, O.Xayitov, A.I.Vorobyev, R.X.Jurayev, I.Xaydarov, R.Mavlonova, P.T.Magzumov, K.D.Davlatov, J.Ramizov, K.Mirsaidov va boshqa kuplab olimlar ish olib borganlar.

Keyingi yillarda respublikamizda yoshlarning mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi va tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha jiddiy mulohazalar yuritish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Xalq hunarmandchiligi an'ana tarzida tasviriy va amaliy san'at san'atining ajralmas qismi hisoblanib kelinmoqda. O'z navbatida xalq amaliy san'ati xalq hunarmandchiligi sohalari bilan juda ko'p uyg'unlashgan hamda qo'shilib ketadigan tomonlari juda ko'pdir. Ayniqsa, ta'lim tizimida o'quvchilarga badiiy ta'lim va tarbiya berishda bu amaliy fan sohasining o'zaro aloqadorligi, bir-birini mustahkamlashi muhim omillaridan hisoblanadi.

Amaliy san'atning turli sohasi, tarixi va tugarak tashg'ulotlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ganchkorlik, naqqoshlik, pichoqchilik, yog'och uymakorlik, kulolchilik, savatchilik, gilamchilik kabi ko'plab sohalari to'g'risida S.S.Bulatov o'zining «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» (1991), «Ganchkorlik» (1990), kabi asarlarida chuqur tahlil qilgan. K.Qosimov esa naqqoshlik san'atining tarixi, taraqqiyot yuli, shu soha ustalari mahorat maktabi to'g'risida ish olib bordi.

Hozirgi davrda afsuski, mehnat va kasb ta'limini tadqiq va tashkil etish darajasi deyarli inqiroz darajasiga kelib qoldi. Bizning fikrimizcha, ushbu inqiroz kelib chiqishining juda kup sabablari mavjud, shulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. Yoshlar mehnat va kasb tayyorgarligini ta'minlashda asosiy omillardan hisoblangan mehnat ta'limi va tarbiyasi yaxlit mukamallashgan tizimining yaratilmaganligi;

2. Mehnat ta'limining mavjud, an'anaviy ko'rinishida milliy, ma'naviy, tarixiy, madaniy mazmunning aks etmaganligi;

3. Mehnat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari; shahar va qishloq maktablarida o'g'il va qiz bolalar mehnati, moddiy xomashyo ta'minoti, metodik asboblari va boshqa jihozlar, o'quv-uslubiy majmua bilan ta'minlashning nochorligi;

4. Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va shu sohaga mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim, kattalar ta'limi, ilmiy tadqiqotchilar o'tkazish bosqichida uzviylikning buzilishi, uzluksiz mexanizmning ishlab chiqilmaganligi;

5. Mehnat ta'limini amalga oshirilishida bu fanning 16-15 ga yaqin fanlar (fizika, kimyo, biologiya, zoologiya, matematika va boshq.) bilan o'zaro aloqadorligi va o'zining ham bir qancha mustaqil fanlardan iborat ekanligi (texnika, texnologiya, maktabshunoslik, gazlamashunoslik, pazandalik, hunarmandchilik va boshq.)ga mutlaqo e'tibor berilmaganligi;

6. Mehnat va kasb ta'limida faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus, oliy ta'lim, malaka oshirish va kattalar ta'limi sohalaridagi mutaxassislarning bevosita ushbu soha ixtisosliklariga chuqur ega emasliklari;

7. Mehnat ta'limi o'quv-me'yoriy va o'quv-metodik ta'minotining yaratilishi, sinovdan o'tkazilishi va amaliyotda qo'llanilishi jihatidan respublikamizda eng so'nggi o'rinlardan biriga tushib qolishi;

8. Mehnat ta'limining xalq xo'jaligi tarmoqlari sanoat, aloqa, transport, xizmat ko'rsatish, qurilish va xalq hunarmandchiligi, iqtisodiyot taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligi hamda bu sohalaridagi o'zgarishlarning mazkur ta'lim sohasi islohida aks etmay qolganligi;

9. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori, kasblar raqobati, maxsulotlar raqobat bardoshligi, xususiy va davlat ishlab chiqarishiga taqsimlanishi kabi ko'plab omillar bolalarni maktab partasidanoq unumli mehnatga tayyorlash tabiiy zaruriyatni keltirib chiqaradi, ammo, mavjud shakli ushbu muammoni kasbiy hal etishga tayyor emasligini ko'rsatdi.

Mehnat ta'limining mavjud ko'rinishi hozirgi zamon talablariga mutlaqo javob bera olmay qolganligi, mazkur ta'lim va tarbiyasi mukammal, yaxlit tizimni ishlab chiqilmaganligi, hamda bo'lajak tizimning tarixiy, milliy, ma'naviy, etnik, metodologik poydevorining yaratilmaganligi bizga tadqiqotimizning mavzusini qo'yidagicha tanlab olish imkoniyatini keltirib chiqaradi:

Umumta'lim maktablarida xalq hunarmandchiligini o'rganish usullari.

Tadqiqotning maqsadi: Uzluksiz mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: Umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bosqichlaridagi mehnat va kasb ta'limi jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Yoshlar uzluksiz mehnat va kasb tayyorgarligi tizimining umumiy o'rta ta'lim va oliy kasbiy pedagogik ta'lim bosqichida xalq hunarmandchiligini o'rganishning mazmuni, shakli, shart-sharoiti, uslubi va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Uzluksiz mehnat va kasb ta'limida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish samarali bo'ladi, qachonki:

- mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning yaxlit, mukammallashgan tizimi ishlab chiqilsa;

- mehnat va kasbga yo'naltirish tizimida nazariy, metodologik poydevor sifatida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish mazmuni tanlab olinsa;

- xalq hunarmandchiligiga asoslangan mehnat ta'limining yangi avlod o'quv-me'yoriy xujjatlar va o'quv-uslubiy majmua yaratilsa;

- xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchi va talabalarning unumli mehnati va mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'llari ko'rsatilsa;

- bulg'usi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi va ustasini tayyorlash jarayonida xalq hunarmandchiligi mazmuni aks ettirilsa;

- o'quvchi va talabalarning xalq hunarmandchiligini o'rganish darajasi va mezonlari belgilansa, hamda o'quvchilar bilim, kunikma va malakalarini belgilashda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilsa.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi yoki nazariy ahamiyati:

- mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishlik yangi tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish;

- mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning o'quv-me'yoriy hujjatlar (konsepsiya, standart, taraqqiyot dasturi) hamda o'quv-metodik ta'minot majmui (davstur, darslik, qo'llanma va didaktik material tuplamlari (yaratish) umumiy o'rta ta'lim va oliy pedagogik kasbiy ta'lim muassasalari uchun);

- uzluksiz ta'lim tizimi umumiy o'rta va oliy pedagogik kasb ta'limida yoshlar xalq hunarmandchiligini o'rganishlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan metodakalar: a) o'quvchi mehnat amaliyoti, b) talaba ishlab chiqarish amaliyoti, v) ta'lim muassasasi qoshidagi kichik korxonalarini amaoga joriy etish va boshqalar ishlab chiqiladi va amalda sinaladi;

- o'quvchi va talabalarning, ijobiy ishlarini hisobga olish va baholashda yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash mexanizmi ishlab chiqiladi va amalda sinaladi;

- ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyanoma, ishlanma va tajriba-sinov materiallari ta'lim tizimiga tegishli bosqichlarda ajratilgan vaqt miqdorini oshirmasdan turib, mazmunni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi: mutafakkirlarining ijodiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki va yozma ijodiyot namunalari; xalq hunarmandlari merosini ta'limiy, tarbiyaviy mohiyat talqini; G'arb va Sharq allomalarining shaxs kamoloti ta'lim, tarbiya to'g'risidagi nazariya, g'oyalarning O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi qaror va qonunlar; O'zbekiston Respublikasi konsepsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi», ilg'or pedagoglarning ish tajribalari; mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi, tayyorgarligi to'g'risida Sharq va G'arb allomalari, nazariyotchi va metodist olimlarning salohiyatlari tashkil etadi.

I-Bob. Xalq hunarmandchiligining tarixiy rivojlanishi va o'rganilishi

1.1. Xalq hunarmandchiligining paydo bo'lishi va taraqqiyoti

Mustaqil rivojlanish yo'liga tushib olgan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy xayotida tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat tuzilishlarida amalga oshirilayotgan islohatlar, milliy qadriyat va urf-odatlarimizning qaytadan tiklanib, asl xolicha yoritilishiga tabiiy ehtiyoj tug'dirmoqda.

Ma'naviyatimizning tarixiy rivojlanishi xolisona yoritilishi yosh avlodni o'qitish tizimiga, fanlarning rivojlanishiga va tarixan yondashish zaruratini keltirib chiqardi.

Kuxna tarixsuronli yillar zarvaraqlarini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo davlatlari jumladan, O'zbekiston xududidagi xalq juda qadimgi davrda, miloddan avvalgi ming yilliklarda paydo bo'lib, taraqqiyot bosqichlarining yoritilishi yetarlicha o'rganilmay, kelajak avlodga yetkazilmasdan keldi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi, to'g'rirog'i, tafakkurli odam (homo sapiens)ning utmishdoshi va ajdodlaridan ajralib chiqish bilan, unda mehnat qila olish uchun maqsadli harakatlar uyg'unligi paydo bo'la boshladi. Maqsadli mehnat harakatlari (ov qilish, boshpana, oziq-ovqatlar tayyorlash va boshq.) tafakkurli odamning odam sifatida shakllanib, rivojlanishiga olib keldi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tabiiy odamning eng oliy mavjudodi-tafakkurli odam, uning shakllanishi 40 ming yil ilgari boshlangan.

Markaziy Osiyo territoriyasida neondertal odamni o'rganishga tabiiy sharoitning muvofiqligi-mu'tadil iqlimning mavjudligi, oqar suvlar, daraxt va boshqa ko'katlar mavjudligi, yashashga sharoitning qulayligi sabab bo'lgan. Mustye davriga oid, odamlar yashagan g'or Bulbulzorsoyda, Omoqutonning qo'yi tomonida Samarqand viloyatida (1947) topilgan. Bu davrda odamlar yashagan yana bir makon Takaliksoy g'ori dengiz satxidan 2000 m. balandlikda, Taxtakoracha dovonida joylashgan bo'lib, qoldiqlari karst tipida-marmarlashib qolgan oxaktosh shaklidir. O'rta Osiyo territoriyasida ilk urug'chilik jamoasiga mansub yuqori paleolit makoni 1939 yilda topilgan bo'lib, ushbu makon Siyobcha soyining ung qirg'og'ida, Samarqandning markazida, madaniy qoldiqlar sarg'ish sog' tuproqda saqlangan.

Qo'yi poleolit – ilk tosh asriga oid topilmalar Selungur g'oridan (Farg'ona), Kulbuloqdan ham (Toshkent) uchraydi.

Mustye davriga oid odamlar yashagan Teshiktosh (Surxandaryo), Obi-raxmat (Toshkent), Kalacha va Sux (Farg'ona), Uchtut (Buxoro), Buzsuv (Toshkent) kabi joylardan topilganligi o'sha davrda ibtidoiy odamlar makoni ko'pligidan dalolat beradi.

So'nggi poleolit va mazolit davriga oid makonlar Samarqand, Uchtut (Buxoro), Oxangaron va Oqtosh (Toshkent), Machay (Surxandaryo), Obishir (Farg'ona) kabi joylarda izlari saqlanib qolgan. Bu davrlarda boshlangan rivojlanish neolit davriga kelib, Kalta minor madaniyati va jez shaklida taraqqiy etgan.

Ibtidoiy odamlar tabiat kuchi, tirikchilik qiyinchiligi, kunlik moddiy ehtiyoji uchun turli moslamalar, tosh, nukleus, yog'och, chaqmoqtosh va dioritdan yasalgan mehnat qurollari yordamida kun kechirganlar, ov qilib, ov maxsulotlariga ishlov berib, uni iste'molga tayyorlaganlar. Ularning mehnat qurollari bo'lib, turli qirg'ich, keskich, sixcha, tosh pichoq, diskasimon sanchki, ushatkich, toshdan yasalgan bolta, yupqa tosh parrakcha, xolsedondan yasalgan yupka plastinka (xayvon terisini shilish uchun), tosh parrak(arras o'rnida) va shu kabilar xizmat qilgan.

Boltalar chaqmoqtoshdan yasalib, turli kattalikda bo'lgan, turlicha maqsadlarda (daraxt shoxi va hayvon suyagini maydalash, toshni sindirish va yer kovlash uchun) ishlatilgan.

Paleolit makonida topilgan to'rtlamchi bosqichga taalluqli pleysseton davri yovvoyi hayvoni bugu, eshak, mamont suyak, kuydirilgan turli shox va baliq suyak qoldiqlari neondertal odamining yashash tarzi ancha xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi.

Neondertal odamining bevosita izdoshi bo'lgan, poleolit davri kromanyun odami faqat ibtidoiy moddiy ehtiyojni qondirish uchun emas, balki tabiat maxsulotlaridan ikkilamchi ehtiyoj uchun bezak va taqinchoqlar tayyorlaganlar. (M: kromanon odamining Samarqand makonidan beshta maxsus belgili hayvon qovurg'asi, hozirgi Daxbet ko'chasidan 6 m chuqurlikda maxsus teshikli dengiz chig'anog'i va sakkizta danakcha (maxsus teshikli), kattaligi bir xil bo'lgan ikkita oq qayroqtosh topilgan). Madaniy geologik qatlam mavjudligi pleysseton – 0 ga to'g'ri kelib, o'rtasi ishqalangan, chiziqli, yupqa yumaloq tosh topilishi usha davr odamining tafakkuri rivojlana boshlaganidan darak beradi.

Paleolit davridan keyingi davrda, mezolit-o'rta tosh asri, neolit-yangi tosh asri, jez-bronza davrida ham tafakkurli odamning shakllanishi davom etdi. Bu davrda ibtidoiy odam O'rta Osiyoda Uzunkul, Toypokkul (Farg'ona), Jonboskal'a, Suvyorgan

(Qoraqolpog'iston), Katta va Kichik tuzkonlar, Zamonbobo (Buxoro), Chust Amirobod (Xorazm), Sopollitepa (Surxandaryo), Sazogon va Tim (Samarqand) kabi ko'plab makonlarda yashab, o'ziga xos madaniy qoldiqlar qoldirgan. Ushbu makonlardan mikrolitik mazmundagi juda ko'plab mehnat qurollari: qirg'ich, bigiz, nukleus, kamon, uq va boshqalar topilgan. Bular usha davr odamining faoliyati ancha takomillashganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning oxiri, ikkinchi ming yillikning boshida ikki muhim soha: chorvachilik (hayvonlarni xonakilashtirish) va dehqonchilik vujudga kelib mehnat unumdorligini ancha oshirib, odamlarning yashash tarzini ancha o'zgartira boshladi. Ona (matriarxat) davridagi shakllangan kabilardan yirik pattiarxat oila va qabilalar yuzaga keldi. Bu davrga to'g'ri keladigan makonlardan (Novkatepa – Kattaqo'rg'on yaqinida, Muminobod-Zarafshon qirg'og'ida va boshq.) turli sopol buyum, pishirilib loydan yasalgan idish, yorguchok (don maxsulotlarini maydalash moslamasi) qoldiqlari va turli xil kiyim qoldiqlari (zigirdan to'qilgan, teridan tayyorlangan), zig'ir tolasiga o'tkazilgan munchoqlar tizimi, bilak uzuklar usha davrdagi odamning tafakkuri ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Ibtidoiy odamlarning yashagan makonidan topildiqlarni qiyosiy o'rganish O'rta Osiyoda yashagan odam bilan Hind okeani soxilidagi qabila bilan qandaydir o'zaro aloqada bo'lganligi, o'sha odam antropologik tipining hozirgi odamga o'xshab ketishi, ko'chmanchi qabila bilan qabila o'rtasida ham qandaydir aloqa bo'lganligidan dalolat beradi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikda dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishi ko'pgina qabilalarning utroqlashishiga sabab bo'lib, tabiiy himoyalangan, tog', suv va tik qirlar bilan himoyalangan joylarda turli qabilalar to'planishib (M: sak va massaget kabilalari), varlar shaklida yirikroq markazlar (M: shaharlar-Afrosiyob, Xorazm, Shosh, Chust va boshq.) yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Quldorlik tizimida qabilalar markazlashib, shaharlar vujudga keldi va turli davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ana shunday markazlar jumlasiga Kuxna Elaton (Farg'ona), Guzalikir va Chirikrabort (Xorazm), Afrosiyob (Samarqand), Kangxa (Qozog'iston) va boshqalarni keltirish mumkin. Turli xil davlatlar: Salavkiylar, Yunon-Baktr davlati, Yevtidemlar sulolasi, Toxarlar, Kangxa (Kanguy) davlati, Farg'ona (Parkana) davlati, Kushon podsholigi, Afrigiylar davlati va boshq. O'zaro urushlarda boshqalarni yengish orqali tez sur'atda rivojlantirishga sabab bo'ldi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalaridan Milod davrigacha bo'lgan taraqqiyot nishonasi sifatida keramika, kulolchilik ustaxonasi, charxi qoldiqlarining topilishi, buyumlarni ko'plab ishlab chiqarishga talab katta bo'lgan. Bu davrga oid topilmalar: muxr-gema, sopol plitalardan qilingan mexroblar, terakotadan yasalgan xaykalcha, turli shakldagi sopol idish, kuza, turtburchakli, teshikli sugd chaka va boshqalar bu davrdagi taraqqiyotning turli darajada rivojlanayotganligini bildiradi.

Shahar va yirik manzillar qalin devor bilan o'ralib, xarbiy istexkomlar darajasida ta'mirlangan, sopol quvur bilan jihozlangan ochiq va yopiq sug'orish tizimi barpo qilingan, bularning barchasini malakali hunarmandlar bajarganlar.

Hunarmandchilik xalq, elat va kabilaning yashashi, turmushi bilan uyg'unlashgan xolda rivojlanib, milodiy VI-XI asrlargacha yirik davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Juda ko'p yillik va kishilik xardiy yurishi, mudofaa va xujum quollarining taraqqiyoti bilan yugrilib ketadi. Ana shunday urush va janjallar davrida madaniy taraqqiyot urush bo'lgan davlatlarda bir tomondan inqirozi yuz bersa, ikkinchi tomondan bir davlatdan ikkinchi davlatga (urush bo'lmagan bo'lsa ham) majburiy, ma'lum tarixiy davrda, mintaqadagi umumiy taraqqiyot in'ikosi yuzaga keladi.

Markaziy Osiyo davlatlarida tarixiy va madaniy taraqqiyot evolyusion o'zgarishida XIII-XIX asrlardagi davr alohida o'zgarishlar yuz bergan davrdan hisoblanadi.

Amir Temur ibn Taragay Baxodirning hokimiyat tepasiga kelishi, buyuk davlat tashkil etib, uni boshqarish (1360-1405) O'rta Osiyoda go'rkirab rivojlangan va Chingizxon istilosi tufayli uzilib qolgan Renessens-ilk uyg'onish davri (IX-XII asrlar) tiklanishi va rivojlanishiga – so'nggi Uyg'onish davri darajasiga chiqishiga olib keldi. So'nggi Uyg'onish davri madaniy va ma'naviy yutuqlarga erishishi Movarounnahrning buyuk davlat sifatida yuksalishi bilan uyg'unlashib ketadi. Soxibqiron Temur va temuriylar davlati deyarli bir yarim asr davomida O'rta Osiyo tarixija keng miqyosda, rang-barang, serqirra va serjilo madaniy-ma'rifiy yodgorliklar yaratishga, buyuk xalq hunarmandlarining yashashi va ishlashlari uchun sharoit va imkoniyat yarata olganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr xalq hunarmandchiligi asosiy ishlab chiqarish sifatida taraqqiy etib, axolini iqtisodiy, harbiy, dehqonchilik, chorvachilik uy-ruzg'or buyumlari bilan ta'minlash manbai hisoblanar edi.

Amir Temur tuzgan buyuk davlat Movarounnaxrning poytaxti hisoblangan Samarqand shahri deyarli yangidan tiklandi, kengaytirildi, hunarmandchilik maxsulotlari

ishlab chiqarish markaziga aylantirildi. Shaharning o'zida va atroflarida Bog'i Dilkusho, Bog'i Jaxonnoma, Bog'i Zog'on, Bog'i Maydon, Bog'i Chinor, Bog'i Bexisht, Bog'i Baland, Bog'i Davlatobod, Bog'i Nav, Bog'i Shamol kabi 10 dan ziyod istiroxat bog'lari bunyod qilindi. Bosib olingan davlatlardan yuz minglab hunarmand va iqtidor egalari Movarounnahrqa, jumladan, Samarqandga keltirilib, yashash va ishlashlariga sharoit yaratildi.

Shahardagi maxsus saroyda (Zarbxonada) tanga-pullar zarb qilingan. Xujum va mudofaa qurollari: qilich, qalqon, xanjar, pichoq, o'q-yoy, sadok, nayza, sovut, dubulga va boshqalar Soxibqironning bevosita kuzatuvida ko'plab ishlab chiqarilgan. Xalq ustalari orasida faqat asrlargina emas, erkin, ozod hunarmandlar ham bo'lib, ularning kasbiy mahoratlariga qarab, Soxibqiron marxamatiga sazovor bo'lganlar.

Bu haqda Amir Temur «Tuzuklari»da («Tuzuki Temur») shunday yozilgan: ... Agar kasbi-hunar, ma'rifat axllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar o'z ahvoli, kasb-koriga qarab ish tutsinlar... Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining imorati, uyi buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin» (Temur tuzuklari, -T.: 1991, 66-67 betlar).

Amir Temur davrida Buyuk Ipak savdo yo'li rivojlanishi va u Movarounnaxrning ko'pgina yirik shaharlaridan o'tishi yirik hunarmandchilik markazi barpo bo'lishiga olib keldi. Samarqand, Kesh (Shaxrisabz), Nasaf (Qarshi), Buxoro, Urganch, Xiva, Shosh (Toshkent), Yassi (Turkiston), Utror, Xiro, Termiz kabi ko'plab shaharlarda hunarmandchilikning 200 ga yaqin turi ishlab chiqarish tarmoqlari darajasida gurkirab rivojlandi.

Turli xil gazlamalar: olacha, parcha, doka, satin, surp, burmet, valak, duxoba, buz, chit, shoyi kabilar ishlab chiqilgan, jimjimador gullar bosilgan. Qimmatbaho gazlamalardan katan, zarbof, kimxob, barbos, futa, banoras, shoyi, atlas, xaro, misri, beqasam, sendal, tafta va tarsenalar ko'plab ishlab chiqilgan hamda turli mamlakatlarga jo'natilgan. Ushbu gazlamalarning arzonidan oddiy xalq, qimmatbahosidan esa davlatmand kishilar, saroy ahli, bek, amir, din peshvosi turli-tuman libos, kuylak, chapon, tun, salla, futa, belbog' va shu kabilarni tayyorlab foydalanishgan. Maxsus

to'qilgan gilam, namat, zilucha, diba (diboj), maxmal (baxmal), shishak kabilar juda xilma-xil bo'lgan.

Ishlab chiqilgan maxsulotlar ichida Samarqand qog'ozi alohida o'rin egallagan va uni ishlab chiqarish nazorati saroy tasarrufida bo'lgan. Ushbu qog'oz bilan Movarounnahr gina emas, balki boshqa davlatlar ham ta'minlangan. Metall, qotishma va rangli metallardan turli buyumlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan, saltanatda metallurgiyaning haqiqiy asoslari yaratilgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Metall quyish va undan hunarmandchilikning boshqa sohaları (dehqonchilik, kulolchilik, pichoqchilik, binokorlik va boshq.) uchun turli asbob-uskunalar yasash juda taraqqiy etgan.

Temirchilar (chilangaron, oxangaron) ketmon, belkurak, tesha, eshik zanjiri, halqqa, mix, xatto eshiklarning o'zini (M: Samarqanddagi Oxanin darvozasi, Bibixonim madrasasi eshigi 7 xil metallardan tayyorlangan) yasaganlar. Metall buyum yasovchi hunarmandlar alohida rastalarda faoliyat ko'rsatganlar, mixchilar (mixchegaron), taqachilar (na'lbandon), sim cho'zuvchilar (simkashon), pichoqchilar (kardagaron), qo'ng'iroq kuyuvchilar (rextagarron) va boshqalar. Buxoroda esa, hunarmandchilikning ixtisoslashishi yirik kompullarda – Toki Zargaron, Toki Sarrafon, Toki Kitobfurushon, Toki Tepakfurushon birlashtirilib, ular yanada yirikroq zuzar va sexlarga birlashtirilgan. Metalldan yasaladigan oddiy buyum, kuza, idish-tovoq, lagan, patnis, jom va qandillar alohida e'tibor bilan uymakorlik naqshlari solingan, tilla suvi yuritilgan holda, xal berilib tayyorlangan. Harbiy anjomlarga esa, oltin, jumush yuritilib, turli qimmatbaho tosh, zumrad, nuqra va durlar bilan bezatilgan. Saltanatda ot-egar anjomlari yuksak mahorat bilan, pishiq va chiroyli qilib yasatilgan, kimxob bilan yopgan, yuganlarga oltin, kumush bilan ishlov berganlar.

Yuksak mahoratli xalq ustalari-zargarlar tayyorlagan turli-tuman bezak buyumlari bilakuzuk, uzuk, zirak, tillaqosh, kamar va bulokilar alohida qadrlangan. Maxsus davlat va saltanat belgilari – muxr va paysalar tayyorlovchi ustalar (muxrkandlar) saroy tasarrufida bo'lib, ular, nefrit, xrizolit, serdolik va agatdan tayyorlangan.

Lashkarning asosiy qismiga maxsus sovutlar, dubulga, sipar, qalqonlar juda chiroyli, bo'lgan asosiysi mustahkam va pishiq qilib yasalgan. Lashkarga ommaviy xujum va mudofaa maxsus moslamalari, oziq-ovqatlar saqlanadigan buyum, oziqqa ishlov berish anjomi, chodir, tug, bayroq, belgi, jangovar va fuqaro aravasi, neft

qaynatadigan, quyadigan maxsus moslama, narvon va boshqalarni hunarmandlar yuksak mahorat bilan yasaganlar.

Turli xil tantana, bazm, harbiy yurish, ziyofatlar, mashvaratlarda kiyiladigan kiyimlar zardo'zlik, kashtachilik ustalarining mohir san'ati bilan tayyorlangan. Kashtachilik va zarduzlik ixtisoslashgan holda rivojlanib, baxya, basma, durya, iroqi, yo'rma, yrmaduzi, piltaduzi, xamduzi va xarakduzi kabi yunalishlari taraqqiy etdi, turli-tuman buyumlar tayyorlangan. Belbog'lar (mashxadi), chorsi, kiyikcha, bugjoma, bushcha, dauri, duppi, yeng, jiyak, joynamoz, joma, zardevor, zinpush, kulox, kalta, pushak, lula, maxsi, mukova, nimcha, oynaxalta, palak, parnji, peshkurta, ruyijo, rupokcha, sandalipush, tun, suzana, takiyapush, tarokxalta, shona-xalta, chimildiq-gushanga, joyshab, sholivor, etik, yuzgir, chakmon, chopon, kin, sadok, namoyon va b. ana shu ajoyib san'at namunalaridir.

Ushbu davrda yog'och o'ymakorligi, yog'och ustaligi-duradgorlik, yog'och buyumlar tayyorlash ayniqsa rivojlandi. Yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar tukish va yigirish dastgohi, kulolchilik moslamasi, arava, egar, sandiq, qush qafas, beshik, sumak, taroq, hissa, qoshiq, turli xil metall buyumlarga dasta, uymakor eshik, xontaxta, panjara, kursi, kitob kuyib o'qish uchun – lavx, tariximy obida, bino uymakor ustuni, qalam, imoratning toki ravoki, tokcha va shu kabilarni yuksak did bilan yasaganlar.

Teri oshlash va teriga ishlov berish kasblari juda keng taraqqiy etgan: oyoq kiyimlar tayyorlovchilar, maxsi tayyorlovchi (maxsiduzon), kalish (kafshduzon), etikduz (muzaduzon), ot-anjomi tayyorlovchi (sarrofon), yugan tayyorlaydigan usta (lojonduzon), pustin tikadigan usta-pustindoz va boshqalar alohida hurmatga sazovor bo'lganlar. Qimmatbaho turli xil muynalardan bosh kiyim, telpak, tumoq, charm kamzul, fartuklar tayyorlash juda keng tarqalgan.

Saltanatda shisha ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan va nodir san'at hisoblangan, turli kitobga muqova, jild qoplash-muqovachilik rivojlangan, qamishlardan turli palos, buyra to'qish – buyrachilik keng taraqqiy etgan, turli xil chiviqdan har xil o'lchamdagi savat, meva soladigan va tashiydigan moslama, chulpi kabilar to'qish keng avj olgan.

Amir Temur davrida va Temuriylar hukmronligi yillarida yirik shaharlar dunyoga kelganligi, juda keng ko'lamda qurilish ishlari olib borilganligi sababli, *me'morchilik*, *binokorlik kasblari* go'rkirab rivojlandi. Naqqoshlik, ganchkorlik, tosh, suyak, yog'och uymakorligi, suvoqchilik, mujaz rang tasvir, duradgorlik, muxandislik, g'isht teruvchilik,

bo'yoqchilik kabi kasb-hunar egalari ulug'lanadi va ular mehnati bilan bebaho tarixiy obidalar yuzaga keldi. Samarqanddagi Bibixonim madrasasi, Jome masjidi, Ko'ksaroy, Ruxobod, Ishratxona maqbarasi, Registon va Shroxizinda ansambllari, Hukmdor bog'i hunarmand raboti, Samarqandning olti darvozasi, Keshdagi Oqsaroy, Shoshdagi Zangiota va Anbarbibi, Kukaldosh madrasasi, Turkistondagi (Yassidagi) Axmad Yassaviy maqbarasi, juda ko'p sardobalar, Buxoro, Xiva, Urganch, Chust va boshqa shaharlardagi o'sha davrda yaratilgan obidalar hozirgi davrda ham tengi yo'q, nodir san'at asarlari sifatida ardoqlanadi.

Sohibqiron davrida oshpazlik alohida hunar, san'at sifatida ulug'langan. Xarbiy yurish, tantana, tuy-tamosha va oddiy yashash sharoitlarida oshpaz taomlarini dimlash, qaynatish, qovurish, bug'latish, kok qilish va boshqa usullar juda ozoda, turli-tuman miqdordagi va xildagi milliy taomlarni pishirganlar.

Soxibqiron Amir Temur davrida kulolchilik ham juda keng taraqqiy etdi. Kulollar loydan turli tabaqa kishilari uchun kuza, lagan, kosa, piyola, xum, yog'chiroq va boshqa buyumlarni ko'plab yasaganlar. Samarqand shahrining yopiq sug'orish sistemasi jihoz va quvurlari ham sopoldan qilingan. Hozirgi davrda ham kulolchilik buyumlari xalq orasida alohida hurmat-ehtirom bilan qaraladi. Usha davrda asos solingan va rivojlangan hunarmandchilik ushbu sohaning sulolalari hozirda ham avlodlar tomonidan e'zozlanib kelinmoqda. M.: Urgutdagi Abdullo kulol buyuk sulolasi imkoniyatlar tug'ilib, yanada chuqurroq o'rganilsa, tadqiq qilinsa, Soxibqiron zamonasiga borib taqalsa, ajab emas.

Amir Temurning o'zi ham xat-savodli kishi bo'lib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik, tarix va falsafa hamda harbiy sarkardalik ilmlaridan habardor bo'lgan, diniy va dunyoviy ilmlardan o'z xukmdorlik faoliyati, davlatni boshqarish, harbiy yurish, ichki va tashqi siyosatni yurgizishda moxirlik bilan foydalana olgan, turli davlatlar boshliqlari, amir va shoxlar bilan diplomatik aloqalarni amalda rivojlantirgan nodir iqtidor egasi bo'lgan. Uning davlatni tuzish va boshqarishga bag'ishlangan «Tuzuki Temur» (Temur tuzuklari) asari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Temur va temuriylar davriga kelib, IX-XII asrlarda gurkirab rivojlangan, ammo keyinchalik deyarli inqirozga uchragan, ma'naviy taraqqiyot qayta tiklandi, ravnaq topdi.

Sohibqiron Temur va temuriylar davrida ma'naviy-madaniy yuksalish juda ko'p omillar natijasida, ya'ni, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va g'oyaviy jarayonlar

uyg'unlashib, madaniy yuksalishga, ruhiy taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilishiga olib keldi.

Xoja Muxammad Baxovuddin Naqshbandiy tasavvuf ilmida «Naqshbandiya» tariqatining, ya'ni, bosh g'oyasi «Dil-ba yoru-u, dast-ba kor» (Doimo ko'ngling Alloxda, qo'ling ishda bo'lsin) bo'lgan tariqatning asoschisidir.

Shoxrux Mirzo ibn Amir Temur Qurogoniy Soxibqironning farzandlari bo'lib, o'zi hukmronlik qilgan davrda Xuroson va Movarounnaxrda ma'naviy taraqqiyot, binokorlik, me'morchilik va san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Mirzo Ulug'bek ibn Muxammad Tarag'ay Soxibqironning nevarasi bo'lib, otasi Shoxrux Mirzo va bobosining bunyodkorlik ishlarini bevosita davom ettirdi va ilmiy nujum, riyoziyot, falakiyot, tarix, astronomiya, falsafa, mantiq fanlarning rivojlanishiga ulkan amaliy hissa qo'shgan buyuk alloma va davlat arbobidir. Uning davrida Samarqandda rasadxona qurildi, Samarqand, Buxoro va Gijduvonda madrasalar bayon etildi, madrasalarga o'sha davrning yirik alloma va fuzalolari taklif etildi hamda, ularning ilm-fan bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratib berildi. U «Ziji Ulug'bek – Ziji jadidi Kurogoniy», «Risolai Ulug'bek», «Tarixiy arba ulus», «Turt ulus ta'rifı» kabi yirik asarlari ko'plab yirik ilmiy risolalar muallifi hamdir.

XIV-XVI asrlarda go'rkirab rivojlangan xalq hunarmandchiligi va ma'naviyatimiz durdonalari ko'p asrlar mobaynida milliy boyligimiz jahon xalqlari oldida yanada mu'tabar, yanada buyuk xalq sifatida ulug'lanishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Buyuk tarix jonli sahifalarida o'z aksini topgan, ma'naviyatimizning bebaho asari bo'lib qolgan xalq hunarmand va allomalarimiz yaratgan ijodiy namunalar bitmas-tugalmas xazinadir. Moxir hunarmand, donishmand va allomalarimiz yaratgan o'lmas meroslarini yanada chuqurroq va kengroq o'rganish hamda ularni hozirgi zamon sharoitida yosh avlodga o'rgatib borish, uzluksiz ta'lim tizimi barcha soha va ilmiy tadqiqotlarda amaliyotga qo'llash har bir ziyolilining muqaddas burchidir.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan XIV-XVI asrlarni alohida davr sifatida o'rganishimizga sabab, Movarounnahr va Xuroson tarixida ilm-fan, xalq hunarmandchiligi, ma'naviyat va madaniyat taraqqiyoti mungullar istilosi tufayli (XII-XIII asrlar) rivojlanishdan deyarli sunish darajasi Renessens – so'nggi uyg'onish davri darajasiga olib chiqildi. Ana shu rivojlanish davri ma'naviyat taraqqiyotida alohida bosqich bo'lganligi sababli, alohida davr sifatida tadqiq qilinishi, har tomonlama

o'rganilishi bebaho meros va qadriyatlarimizni o'zimiz o'rganib, zamondoshlarimizga, butun dunyo va kelajak avlodga yetkazishning barcha imkoniyatlari qidirilishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov zero, ushbu muammoni umummamlakat imqiyosida yechimini topish va hal etishga da'vat etmoqda. Bu ishga davlat rahbari, hokimi va barcha fuqarolarini amaliy yordam ko'rsatishga chaqirmokdalar: «Yoshlarimiz ongiga ona-Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish maqsadida ularni dunyoni hayratga solgan qadimgi yodgorliklar va mustaqillik davrida bunyod etilgan ulkan inshootlar, ma'rifat maskanlari, yurtimizning go'zal tabiati bilan tanishtirib borish uchun maxsus tanishtiruv uchun sayohatlar tashkil etish barcha hokimlar zimmasiga yuklatilsin». (1996, 9-sentyabr).

1.2. Xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish ilmiy-pedagogik muammo sifatida

Xalq hunarmandchiligining ma'naviy me'roslarimiz bilan xamoxang rivojlanishi juda ko'p mutafakkirlarimizning, donishmandlarimizning bitik va adabiy meroslarida yuksak mahorat-la bitildi, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo'lib qo'shildi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda yaratilgan xadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol, g'azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko'rinishlarda ta'lim-tarbiya va kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizgacha yetib kelgan.

Bunday yozma manbalarga VI-VII asrlarda yaratilgan Avesto, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asari, Xind faylasufi Beydabo (Bedpoy) tomonidan yozilgan «Kamila va Dimna», Al-Xorazmiy «Ugitlar»i Abu Rayxon Beruniyning «Minerologiya» asari, Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u Bilig», Maxmud Koshgariyning «Devonu-lugotit turk», Axmad Yugnakiyning «Xibat-ul xakoyik», Paxlavon Maxmudning «Ruboiy»lari, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan to'plangan «Xadislar», Lutfiyning «Gul va Navro'z», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Maxbubul-kulub»larida, Aruz Samarqandiyning «Nodir xikoyatlar»i, Zaxiriddin Muxammad Boburning «Boburnoma» va boshqa ko'plab adabiy, tarixiy, madaniy-ma'rifiy merosimiz namunalarini misol keltirish mumkin.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto»da mehnat qilish, halol kun kechirish to'g'risida shunday satrlar ko'plab keltirilgan: «Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim». Yana, «Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh eshib turajaksan, haqiqatdan ham sening yoningda turli xil zirootlarni olib o'tadilar». U tarbiyaviy, ta'limiy, pandnoma ko'rinishidagi yirik asardir. «Qobusnoma» 44 bobdan iborat bo'lib, boshdan oxirigacha o'sib kelayotgan avlodga, axloq, bilimli bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish, har kimga o'zining shaxsiy va ijtimoiy hayotni yo'lga qo'ya olish va turmushning boshqa qirralarini yoritib, tahlil qilib berish bilan sug'orilgan. Undagi «Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida» nomli 6-maqolot, «Dehqonchilik va bozor hunarlari haqida» deb nomlangan 43-maqolot bizning tadqiqotimiz uchun, ya'ni yosh

avlodni mehnatga va kasb-hunar o'rganishga yo'naltirish uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Jumladan, 6-maqolotda shunday deyiladi: «Ey farzand, ogoh bo'lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bulur va hych kimga foydasi tegmaydi... Agar kishi oliy nasab, asl bo'lsa-yu, hunari bo'lmasa, haloyiqning izzat va hurmatidan maxrum bo'lmasa, undan battarroq bo'ladi».

Ushbu malokotda ham, asarda ham bir aytilgan pand-nasihat turli rivoyatlar keltirilib, xayotiy misollar bilan quvvatlangan. «Foydasiz bulur, hych kimga foydasi tegmaydi» deyilganda, albatta muallif avvalo, jamiyat, xalq manfaatini, kelajak manfaatini, so'ngra esa shaxs o'zining manfaatini tutishni istaydi.

Demak, hunarni egallashdan avvalo jamiyatga moddiy yoki ma'naviy boylik yaratiladi, hunarmandlarning o'zi esa zoriqmay-zuriqmay yashaydi, nopok ishlarda parhez qiladi. «Oliy nasab, asl bo'lsa-yu,... deyilganda har bir kishining jumladan, shaxzodalar ham o'zining o'tmishi, avlodi, quruq faxrlanishi bilan cheklanib qolmasdan ana shu avlodning yuzini yerga qaratmag'il, buni faqat hunar o'rgansang, nopok ishlarga qul urmaysan, shundagina sen hunar orqali o'zingni, oilangni, atrofdagi yor-birodarlaringnigina ham emas, balkim, avlodningni ham har xil istexnodan saqlaysan degan mazmuni keltirib chiqarishga, yetkazishga harakat qildi. Demak, qissadan-hissa shuki, har qanday kishi lavozimidan, bilimidan, boyligidan, avlodining nasl-nasabining kim va qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hunar egallashi lozim, shundagina u hayotda har xil nojoiz harakatlardan holi bo'ladi.

Albatta Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari VIII-IX asrlardan boshlab, asosan, islom diniga, uning aqidalariga rioya qilib kelmoqdalar. Musulmonlarning eng oliy, eng muqaddas kitobi bo'lgan «Qur'oni Karim» o'zining oyatlarida, suralarida mu'tabar Ollox nomidan xalqni, ahli muminni to'g'ri yo'lga boshlaydi. «Qur'oni Karim»ning bevosita oyatlaridan kelib chiqib, xalq orasida turli pand-nasihat, uqtirishlar, ta'kidlashlar ko'rinishida bo'lgan «Xadis»lar ham kishilarning turmush tarzini, ijtimoiy faoliyatini bir-biriga munosabatini ma'lum darajada tartibga solish to'g'risida ugitlar beradi.

Islom olamining buyuk muxaddislaridan hisoblangan Ismoil al-Buxoriy o'zining salafarlari (6 muxaddis) orasida «Xadis ilmida amir al-muminiyn»dir. Ulug' olim Ibn Ismoil al-Buxoriyning 20 dan ziyod asari bo'lib «Al-jome' assaxix» ishonarli to'plami eng yiriklaridan hisoblanadi, hamda «Saxiyk al-Buxoriy» nomi bilan ham yuritiladi.

Ushbu asarda 72, 75 takrorlanadigan xolda, takrorlanmaydigan holda 4000 xadis ma'lum mavzuiy tartib holda to'plangan Manbalarda esa al-Buxoriy xazratlarining 600000 ga yaqin xadisini yod bilganliklari tilga olinadi.

Jumladan, «Al-jomi' as-saxix»ning «Savdo-sotiq kitobi»dagi 14-bobda «Kishining kasbi va o'z qo'li bilan mehnat qilishi haqida shunday deyiladi: «Oysha raziyalloxu anxo rivoyat qiladilar: «Abu Bakr Siddiq xalifa bo'lganlarida»: «Mening o'z kasbim borligini kavmimiz yaxshi bilur. Men garchi musulmonlar ishlari bilan bind bo'lishim, ham, shu kasbim orqali oila tebraturman» derdilar.

O'rta asr Sharqining buyuk allomasi abu Nasr Farobiy o'zining qator asarlarida ilm va ta'limning mukaddasligi, xushaxloqlik, sadoqat, insoniylik, tarbiya mehnat va kasb-hunar o'rganish to'g'risidagi falsafiy, ilmiy g'oyalarni ilgari surdi. M: uning «Risola fi-tanbix asbob as-saodat» (Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola), asarlarida o'zining yaxshi, mukammal, baxtli jamiyat haqidagi orzularini batafsil bayon qiladi. U nomi ko'rsatilgan dastlabki asarida shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning axolisidan bulgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar...». Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarida ta'lim-tarbiya, mehnat va kasb-hunar kishisining fazilatlarini to'g'risida shunday fikr yuritadi: «Ta'lim faqat so'z va urganish bilangiga buladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bulgan ish-xarakat, kasb-hunarga berilgan bulishi, o'rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar». Demak, mutafakkir oqil jamiyat qurishning ham, barkamol shakllangan insonlarni tarbiyalashda ham, millat va xalqning ravnaqi ham kasb-hunar o'rganish va halol mehnat qilish zarurligini angelaydi va uqtiradi. Markaziy Osiyoning, sharqning buyuk allomasi, shuxrati butun olamga mashxur qomusiy mutafakkir Abu Rayxon Beruniy fan olamida, tafakkur xazinasida yirik o'ringa ega bo'lgan ilmiy meros qoldirdi. Uning «Minerologiya» (Qimmatbaho toshlarni bilish), «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kabi asarlarida tafakkurga, ilmga, falsafaga, ta'lim-tarbiyaga, mehnatga va kasb-hunarlarni egallashning ahamiyati to'g'risida fikrlari bayon qilingan.

Abu Rayxon Beruniyning «Minerologiya» asarida jumladan, shunday keltirib utiladi: «Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori

martabaga mehnatsiz erishgan kishi va farog'at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo, ulug'lik libosidan maxrum, yalang'ochdir». Demak, mehnatning tagi rohat, ammo, mehnatkash kishi juda katta amaldor bo'la olmasligi, juda boy-badavlat bo'la olmasligi, yalang'och bo'lishi mumkin ammo, huzur-halovatda bo'ladi.

Sharqning ulug' bilimdonlaridan biri Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilig» (Saodatga yullovchi bilim) nomli asaridagi «Oytuldi o'g'li Ugdulmishga pand berishini aytadi» nomli hikoyatida kasb-hunar o'rganish shunday ugit qiladi: «Ugil-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunarlar bilan fe'l-atvor go'zal bo'lsin». Demak, otionalarning burchlaridan biri farzandlari hoh o'g'il bo'lsin, qiz bo'lsin, avvalo ularga hunar o'rgatish bilimlaridan xabardor qilsin, kelgusida ana shularni o'rgangach, ularning fe'l-atvori, odob-axloqi ham go'zal bo'lishiga erishildi. U yana «o'g'il-qiz tug'ilsa, ularni qanday tarbiyalashni aytadi» nomli hikoyatda shunday to'xtaladi:

«O'g'il-qizga bilim ham odob urgat,
Ikki olam uniki, uning manfaati yetarli bo'ladi,
O'g'ilga barcha san'at-hunarlarini to'la urgat,
Bu san'at-hunarlar bilan u mol-dunyoyiga beradi.

Yosh avlodni halol mehnat qilishga, turli kasb-hunarlarini egallashga urgatilib borishi xalqimizning butun taraqqiyoti tarixida, turli davrlarda ham muqaddas aqida an'anaga aylanib borgan.

Mutafakkirlar, allomalar, axli donishlar, nazariyotchi va amaliyotchilar, olimlar tomonidan bu sohada turlicha tadqiqot va izlanishlar. Kuzatishlar olib borib, o'zlarining fikr va mulohazalarini asarlarida bayon qilganlar.

Biz ham o'z tadqiqotimizni olib borish jarayonida yosh avlodga kasb-hunar o'rgatish, ularni halol, unumli mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonini turli davlatlarda turli sohalarining tadqiq qilinishi darajasini aniqlashda va keyingi yuz yillikdagi davrni kuzatish (tahlil qilish)ga, qolaversa, mustaqil o'zbekiston pedagogikasida bu sohada erishilayotgan natijalarni qisman qayd qilib o'tishga harakat qildik.

Xalqning mehnat an'alariga, mehnat bayramlariga, yoshlarni unumli mehnat faoliyatiga, jarayoniga, kishilariga hurmat, ularning turli kasb-hunarlarini egallashlariga dastlabki qadamlar hisoblanadi va mehnat tayyorgarligining muhim omilidir.

Yoshlarning mehnat tayyorgarligi, ta'limi, tarbiyasi, ularni kasblarga yo'naltrish, kasb tanlash, egallash, kasbiy ma'lumotlar berish, kasblarga moslashishlarining turli

masalalari bilan turli davlatlarning turli sohalari olimlari (falsafa, psixologiya, pedagogika, didaktika, iqtisodiyot va boshq.) har xil davrlarda shug'ullandilar va shug'ullanmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida ham uzoq davrlar mobaynida yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligi, ularni unumli mehnat jarayonidagi faoliyatga tayyorlash, kasb-hunar o'rgatish, xalq xujaligining turli sohalarida mehnat qilishga o'rgatishga tayyorlashning turli masalalari bilan ko'pgina olimlarimiz shug'ullanadilar. Ular o'z tadqiqot natijalarini nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari tarzida bayon etdilar.

Maktab o'quvchilarining mehnat tayyorgarligi politexnik ta'lim, ularning ijtimoiy-foydali unumli mehnatini tashkil etishning zamon o'zgarishlariga uyg'unlashgan holdagi mazmuni, shaklini usul va vositalarini ishlab chiqish masalalari mustaqil davlatimiz pedagog-olimlari oldidagi, davlat mashtabidagi masala bo'lib qolmoqda.

Asrlar mobaynida o'zining ilg'or madaniyati, milliy qadriyatlarini, o'zligining noyob belgilari, ko'rinishlari bo'lgan urf-odatlarini, amaliy san'ati, xalq hunarmandchiligining boy merosi bilan xalqimiz faxrlanib, e'zozlab, ulug'lab keladi.

Turli olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilib, xalq ustalari, hunarmandlari, tomonidan rivojlantirib, kengaytirilgan, xalq milliy amaliy san'ati, xalq bezak san'ati, badiiy san'at kabi juda kup xildagi nomlanib kelgan xalq hunarmandchiligi asoslarini hozirgi zamon xalq ta'limi tizimidagi o'rta (umumta'lim, hunar, maxsus) maktablari o'quv dasturlarida mustaqil predmet sifatida o'z aksini topmagan. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini, yo'nalishlarini, qirralarini turli davlatlarda olimlarimiz ilmiy tadqiqotlarini yoritdilar.

S.S.Bulatov - o'z ilmiy tadqiqotlarida xalq amaliy bezak san'ati turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och uymakorligi, kulolchilik, kashtachilik, gilamchilik va boshqa 10 dan ziyod hunarning tarixi, rivojlanish yo'llari, shu sohalardagi ustalar uslublari, xalq amaliy san'atidagi Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xiva, Shaxrisabz maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berdi.

Shuni aytish mumkinki, xalq hunarmandchiligi turli sohalarini (gilamchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och uymakorligi, suyak va metall uymakorligi, kashtachilik, milliy pazandachilik asoslari, milliy qandolatchilik, egar-jabduklar tayyorlash, suzanalar tikish, pichoq tayyorlash, temirchilik, kandakorlik, rextagirlik

(qo'ng'iroqsozlik), charmdo'zlik, etikdo'zlik, do'ppi va choponlar tikish, milliy imoratsozlik, sandiqlar va beshik yasash, milliy dehqonchilik asoslari va boshqalar (didaktik-uslubiy asoslari tizimlashtirilgan holda yaratilgan emas. Bu sohalarining maktablarda (umumiy o'rta, maxsus, hunar, oliy) qo'llanilishining ilmiy-pedagogik asoslari, metodik yullari, vositalari, mazmuni, uslublari butunligicha mujassamlantirilgan holda shakllantirilmagan. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini amaliyotga qo'llash, yosh avlodga o'rgatish jarayonida mehnat ta'limi, tarbiyasi va boshqalar bir butun tizim holida ishlanmasdan xalq ta'limi tizimida qo'llanilmasdan kelmoqda. Zero, davlatimizning mustaqil respublika sifatida shakllanishi, turli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar har bir xalqning milliy qadriyatini ulug'lash davri yetilganligini ko'rsatadi.

Umumiy o'rta, hunar, maxsus maktablar o'quv dasturlarida o'quv uslubiy qo'llanmalarida, darsliklarida xalq hunarmandchiligi o'quv elementlari kiritilmagan yoki juda ham kam kiritilgan.

Biz - o'quv elementlari deb, shartli ravishda o'quv mashg'ulot mavzularini, qo'llanma boblarini, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar nomlarini nomlab oldik.

Hozirgi paytda mehnat ta'limi darslari maktablarda 3 katta guruhda yo'nalishda tashkil etilmoqda:

1) Texnikaviy mehnat – qog'oz va karton bilan ishlash, yog'och bilan ishlash, metallar bilan ishlash, stanoklar va mexaniyazasiyalashtirilgan usullarda materiallarga ishlov berish, elektrotexnika ishlari avtomatika elementlari va x.k.

2) Qishloq xo'jaligi mehnati bir yillik o'simliklarni ekish va ustirish, agronomiya, yershunoslik, chorvachilik asoslari ochiq va yopiq tuproqda dehqonchilik va x.k..

3) Maishiy xizmat mehnati – uyshunoslik, oziq-ovqatlar bilan ishlash, kulinariya asoslari, gazlamalar bilan ishlash va boshqalar.

Maktablarning hozirgi davrda o'tilayotgan mehnat ta'limi darslarining, o'quvchilarning mehnat va kasbiy mahorat tayyorgarligida, o'quv mashg'ulotlarini sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar sifati, mazmuni o'zgaruvchan jamiyatimiz talablariga mutlaqo javob bera olmaydi.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilar unumli mehnatini tashkil etish yo'llari, mazmuni, vositalari, uslublari joriy ta'lim dasturlarida, o'quv qo'llanmalarida hamda darsliklarda aks ettirilmagan.

Kuzatish va tahlillardan ma'lum bo'ldiki, maktablardagi o'quv mashg'ulotlarga, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarga, unumli mehnatni tashkil etish shakllariga milliylik ruxi va mazmuni xalq hunarmandchiligining maxalliy sharoitlarda tashkil etilishiga rahbarlikka, tashkilotchilikka tayyorlanish uslubiyati ishlab chiqilmagan.

Oliygohtarlar o'quv yurtlari xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilar mehnat faoliyatini takomillashtirishga moslashtirilmagan.

Umumiy o'rta ta'lim (maxsus, hunar) maktablarida mehnat ta'limidan tashkil etiladigan darslar o'zining qo'yidagi bir qancha xususiyatlari bilan boshqa predmetlardan (M: tillar yunalishdagi, fizika, matematika yunalishidagi ijtimoiy fanlardan) tubdan farq qiladi.

Zamonaviy mehnat ta'limi darslari mazmuniga va maqsadiga qo'yidagi tiplarga bo'linadi:

I-tip. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darslari;

II-tip. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish darslari;

III-tip. Ishlab chiqarish, unumli mehnat darslari.

I-tip. Darslarni bevosita sinflarda, kasb tanlash kabinetlarida, dala shiyponlarida, mashina-traktor saroylarida nazariy mashg'ulotlar (leksiya, suhbat, hikoya va x.k. lar ko'rinishida) sifatida, ishlab chiqarish sayohatlari, yo'l-yo'riqlar jarayonida tashkil etiladi.

II-tipdagi darslar o'quv ustaxonalarida, maktab tajriba yer uchastkasida, mehnat ta'limidan tashkil etiladigan tugaraklarning amaliy mashg'ulotlar o'tkazish kabinetlarida, ilmiy-texnikaviy, o'quv-uslubiy adabiyotlar, instruksion, texnologik, marshrutli kartalar bilan ishlash kasbiy mahoratini oshirib borish, texnikaviy va texnologik, politexnik mazmundagi masalalarni yechish, turli xil materiallarga ishlov berish asboblari va uskunalar bilan ishlash jarayonida malaka va qo'nikmalarni (umummehnat, xususiy, kasbiy maxsus) hosil qilish, takomillashtirish va rivojlantirish yo'nalishida olib boriladi.

III-tipdagi darslar – maktab ustaxonalarida, otalik korxonalarida (davlat, xususiy, ijara xo'jaliklarida)ning ishlab chiqarish sexlarida, o'quv ishlab chiqarish brigadalarida, korxonalarining mavsumiy ishlarida, oila, ijara, shirkat, fermer, dehqon xujaliklarida, kooperativlarida, yakka tartibdagi yollanma mehnatda ishtirok etish jarayonida va boshqa ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin.

Maktablarda tashkil etilayotgan 3–tipdagi mehnat ta’limi darslarining I-tipdagi darslarning tashkil etilishi ko’rinishlari, shakllari boshqa predmetlardan o’tkaziladigan mashg’ulotlar bilan ko’pgina o’xshashliklari bo’lsada, II-III-tipdagi darslar faqat mazmunangina emas, balki tubdan farq qiladi.

Mehnat ta’limi II-III-tipdagi o’quv mashg’ulotlari faqat o’quv sinflaridagina emas, balki o’quv tajribasi uchastkalarida, ishlab chiqarish sexlarida, dala shiypon, mashina traktor saroylarida, chorvachilik fermalarida, oilada, davlat shaxsiy, xususiy, ijara xo’jaliklari ishlab chiqarish sexlarida ham normal tashkil etilishi bilan farq qiladi. II-III-tipdagi darslarni tashkil etish uchun maxsus jihozlangan maydonlar, asbob-uskunalar, turli xil materiallar, stanoklar, qurilmalar zarur bo’ladi. Bu darslarni maxsus professional tayyorgarlikka ega bo’lgan ishlab chiqarish, xalq xo’jaligi, texnikaviy-texnologik jarayonlar to’g’risida maxsus ma’lumotga ega bo’lgan, qishloq xo’jalik, sanoat qurilish va mashinasozlikning biror sohalarida faol mehnat qilayotgan ilg’or ishchilar, injener-texnik xodimlar, agronomlar, rahbar xodimlar, murabbiylar, turli xil kasb egalari o’z kasblarining ustalari namunali dars o’tishlari mumkin.

Yoshlarni kelajak hayotga, mehnatga ma’lum kasb hunarga tayyorlash ishida, ularga xalq xujaligining tuzilishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, yangi texnika, ilg’or texnologiya, avtomatika elementlari, turli materiallar va asbob-uskunalar, jihozlar, qurilmalar bilan tanishish va ishlash, ishlab chiqarish, unumli mehnat kasblari, kasb egalari hayoti va faoliyati va x.k. lar bilan tanishtirishda mehnat ta’limi darslari, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar muxim rol o’ynaydi.

Hozirgi zamon respublikamiz pedagogikasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda bolalar mehnatini normalash, yosh, pedagogik, psixologik va individual xususiyatlarga ko’ra davlat, xususiy, ijara, shaxsiy, oilaviy, fermer, dehqon xo’jaliklarida bolalar mehnatini tashkil etish shakllari, mazmuni xalq hunarmandchiligi bo’yicha ustalar tajribalarini yosh avlodga o’rgatish uslubiyatini ishlab chiqish, bolalar mehnatiga haq to’lash, bozor iqtisodiyotida bolalarning o’zi, mehnatining roli, o’rni va x.k. muammolar to’g’risida tugal nazariy g’oyalar, amaliy-uslubiy qo’llanmalar yaratilmagan.

Biz dissertasiyamizning 1,2-§ larida hozirgi zamon xalq hunarmandchiligi bo’yicha o’quvchilarning mehnat faoliyati siymosini yaratishga harakat qildik.

Bulgusi kasb-hunar egalari ta’lim-tarbiya muassasalarida tayyorlash ishi doimo katta ahamiyatga ega bo’lib kelgan va kelmoqda.

Bulgusi mutaxassislarni tayyorlash tizimi asosan, 3 qismdan iborat nazariy asosni qamrab olib: ta'lim maqsadi, mazmuni va uslublari, o'quvchilarni kelajak hayotga, mehnatga, ma'lum kasbga tayyorlashda ta'lim maqsadini aniqlashtirish – bulgusi mutaxassis qanday bo'lmog'i, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim, qanday funksiyalarni bajara olish mumkin, deb nomlangan muammolarni ta'lim maqsadiga shakllantirishdir. Hozirgi zamon maktablarida amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari mazmuni - o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi asoslarini o'rgatishga yo'llash ishi – ta'lim mazmunini aniqlashdir.

Joriy mehnat ta'limi kursini milliy qadriyatlarimiz, xalq hunarmandchiligi mazmuni bilan boyitish yoki ko'plab to'liq yangilash ta'lim mazmuniga qo'yilgan davlat talabi-buyurtmasi hisoblanadi.

Ta'lim maqsadini va mazmunini amalga oshirishda o'quv jarayonida, albatta o'ziga xos usullar qo'llaniladi. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi – ko'rgazmalilik, tabiiy va sun'iy obyektlarni namoyish qilish, amaliy mashqlar, bajarilgan operasialarni, usullarni qayta-qayta bajarib ko'rsatish, mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqalardir.

Bulgusi mutaxassislarni tayyorlash ishining ta'lim tizimi maqsadini yozma ifodalash-mutaxassis siymosi, faoliyat siymosi bilan, bilim, ko'nikma, malakalar turi bilan uzviy bog'liqdir.

1.3. Mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishning hozirgi davrdagi ahvoli

Ta'lim tizimida umumta'lim maktablari va ularda o'rgatiladigan turli yo'nalishdagi fanlar yosh avlodning shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddati 9 yil qilib belgilandi va bolalarning yosh, individual psixofiziologik, aqliy rivojlanishiga ko'ra 6-7 yoshdan qabul qilinib, bilimlarni o'zlashtirishga asosan 1-9 sinflar, ba'zi hollarda eksternet tipidagi ta'limga ham ruxsat etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning mehnat ta'limi tarbiyasi, tayyorgarligi asosan, shu nomdagi o'quv fani negizida olib boriladi.

Mehnat ta'limining ta'lim muassasalari o'quv rejalariga fan sifatida, o'quv predmeti sifatida kiritilganligiga 100 yildan oshganligiga qaramay (1883 y. fan olimi E.Signuyes) hanuzgacha, butun, yaxlit tizim sifatida to'liq shakllanib, tashkil etilish maqsadlarini va vazifalarini to'liq safarbar eta olgani yo'q. To'g'ri, yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'limi bo'yicha juda yirik, salmoqli tadqiqot ishlari, kuzatishlari olib borilgan. Chet el va Respublikamiz olimlari bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlarida, turli xil materiallar, qo'llanmalar, monografiyalar, dasturlar tayyorlashlarida chop etishlarida yirik natijalarga erishdilar. Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligining turli sohalari, muammolarni tadqiq etish bilan pedagog olimlardan U.N.Nishonaliyev, N.Sh.Shodiyev, T.T.Magzumov, E.T.Choriyev, A.I.Vorobyev, N.S.Sayidaxmedov, Ya.Xaydarov, A.R.Xodjaboyev, R.X.Jo'rayev, O.Xayitov, R.Mavlonova, K.Davlatov, J.Ramizov, K.Mirsaidov, A.Ismoilov kabilar ko'pgina ishlarni olib bordilar, o'z tadqiqotlari natijalarini monografiyalar, qo'llanmalar va tavsiyanomalar ko'rinishlarida chop etdilar.

Mehnat tarbiyasi, qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnatsevarlik xislatlarining shakllanishi masalalarini E.T.Choriyev o'zining «O'zbekiston qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida o'quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktabida mehnat tarbiyasining mazmun, shakl, uslublarini yoritib o'tdi. Ushbu qo'llanmada olim respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy sohalardan hisoblangan qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarda mehnat tarbiyasi shakllari va mazmuni, ushbu tarbiyaning o'ziga xos yo'nalishlari, shakl va vositalarini yetarlicha tahlil etadi. Mehnat

tarbiyasining shaxs fazilatlarining shakllanishidagi yetakchi o'rnini belgilab berishga muvaffaqiyatli harakat qiladi. Yirik pedagog olim U.N.Nishonaliyevning asosiy olmiy ishlari, tadqiqotlarining natijalari oliy ta'lim pedagogikasini, didaktikasini rivojlantirishga qaratilgan. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsiyati shakllanishi: istiqbol va muammolari» nomli monografiyasida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini oliy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlash muammolarini tahlil etadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining ushbu sohani tashkil etishda, yetakchilik qilishida uning shaxsiy, kasbiy fazilatlarining shakllanganligi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu ta'lim sohasining o'ziga xos murakkabligi, ko'p qirraligiga, amaliyligi, ishlab chiqarishligi va boshqalar shu soha o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ko'lamida sohalarida ko'rinadi. «Mehnat ta'limi o'qituvchisi-tegishli predmetni o'qitish uchun pedagogik ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, umumta'lim maktablari, o'quv- ishlab chiqarish kombinatlari va hunar-texnika o'quv yurtlarida doimiy mashg'ulot olib boradi, jumladan, yo'nalishlarda texnik (metallarni, metalmaslarga va yog'ochlarga ishlov berish) IV-VIII sinflarda qishloq xo'jaligi mehnati, IX-X cinflarda metallarga ishlov berish, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi, avtomobil ishlari, chizmachilik va b.

Demak, ushbu fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, mehnat ta'limi sohasi, jumladan uni o'qitadigan o'qituvchi kasbiy faoliyati, bilim ko'nikma va malakalari juda xilma-xildir. Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlari, sohalarini juda rang-barang bo'lishi ushbu fan to'g'risida yaxlit, mukamallashgan tushunchalarning bir butun tizim sifatida uyg'unlashmaslikka olib keldi. Chunki, mehnat ta'limining, ya'ni bevosita o'quvchilarning qaysi sinflarda qanday bilimlarni o'zlashtirishlari, Qanday ko'nikmalarni shakllantirishlari va rivojlantirishlarini bir tizimga solish uchun maxsus tadqiqotlar obyekti qilib tanlanib, yirik ko'lamda ishlar olib borilishi lozim.

U.N.Nishonaliyevning oliy o'quv yurtlarida bulg'usi mutaxassislarga pedagogik bilimlar berish, ularning pedagogik mahoratini shakllantirishni mukammallashtirish maqsadida olib borgan kuzatishlari I.I.Tursunov bilan muallifdoshlikdagi «Pedagogik kursi» da mujassamlashgan . Ushbu kursda olimlar bo'lg'usi mutaxassis pedagoglarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarining shakllanish va rivojlantirilishi ta'lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy garovi sifatida talqin etadilar.

«Pedagogika fani tomonidan rivojlantirilayotgan tarbiya konsepsiyasida tarbiyaning faqatgina obyektiv emas, balki subyektivi ham hisoblangan insonning o'z faoliyatiga katta o'rin beriladi».

Demak, tarbiya ishida avvalo inson faoliyatida turli fazilatlar shakllanishida faollik yetakchi o'rin tutadi. Inson tomonidan hayoti mobaynida o'z oldiga shaxsiy maqsadlarni qo'yishi, ularni bajarishga intilishi, ularni muvaffaqiyatli hal etishi, ularga yetishishni o'ziga zarur bo'lgan sifatlarni hosil qilishi ham katta rol o'ynaydi. Demak, ushbu jarayonni boshqarishga hissa qo'shish, ma'lum maqsadga yo'naltirish, uyushgan holda tashkil etish ishlari ko'pincha, oilada ta'lim muassasalarida va jamoatchilik orasida olib borilishida tarbiyachilar, pedagoglar, murabbiylarning o'zlarining ham tarbiyalanishga intilishlari ham muhim o'rin tutadi.

Mehnat va kasb ta'limining muhim sohalarida hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasbiy axborotlar uyushtirish ishlariga talablarni tayyorlash ishlarini tadqiq etish bilan N.Sh.Shodiyev shug'ullandi. U o'zining «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish», o'quvchilarning kasb tanlash ishlari bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlari qishloq xo'jalik ishchi kasblari kabi ko'plab monografiya va qo'llanmalarida ushbu soha muammolarini tadqiq qildi.

Olim ko'p yillik kuzatishlari, olib borgan tadqiqot ishlarida mehnat ta'limining bevosita mahsuli bo'lgan, yoshlarning hayotdagi faol o'rinlarini, kelajak hayot yo'lini belgilaydigan turli kasb hunarlarni egallashlarining umumta'lim maktablarida, hunar o'quv yurtlarida, oliygohlardagi o'quv tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishga doir muvaffaqiyatli ishlar olib bordi.

Mehnat ta'limi o'zining ko'pgina jihatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Ana shunday xususiyatlardan biri, ushbu sohaning alohida o'quv-moddiy va metodik ta'minotga egalidir. Mehnat ta'limini samarali o'qitish uchun, uni o'qitadigan mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun ham alohida e'tiborga molik (boshqa fanlardan o'laroq) o'quv uslubiy majmualar lozim bo'ladi. Bulg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash uchun zaruriy o'quv-metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqarish va uni amalda sinab ko'rish bilan pedagog olim. A.R.Xo'jaboyev kuzatishlar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'quv-metodik majmuaning ilmiy-pedagogik asoslari» deb nomlangan doktorlik dissertasiyasida ushbu ta'minotni turlarini, tuzilishini, maqsad

va vazifalarini yoritdi. Olim majmuani qo'yidagi qismlarga ajratadi: 1.o'quv-ko'rsatmali qo'llanmalar (o'.q.k.), o'quv-metodik adabiyotlar (o'.m.a.), o'quv ishlab chiqarish, laboratoriya jihozlari va materiallar (o'.i.ch.j.), o'qitishning texnik vositalari (o'.t.v.).

Demak, umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatni olib boruvchi o'qituvchilarni tayyorlash uchun ham, alohida tuzilishga mazmunga ega o'quv uslubiy majmua ham zarur bo'ladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asosiy masalalardan biri hisoblangan kasb hunar ta'limining nazariy-ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ham respublikamizda ko'pgina pedagogik olimlar shug'ullanadilar. Ya.Xaydarov, R.X.Jo'rayev, X.Q.Yo'ldoshev, A.Ismoilovlarning olib borgan tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatlari bevosita yoshlarning kasbiy ta'limining turli masalalari yechimlarini topishga qaratilgan. Masalan, A.Ismoilovning o'zbekistonda yoshlarning kasbiy ta'limi taraqqiyoti tarixini rivojlanishini tahlil etishga bag'ishlangan ishlari bu sohadagi yirik ishlardan hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borishda turli monografiyalar, o'quv dasturlari, darsliklar va boshqa ilmiy manbalarni tahlil etib, respublikamizda mehnat va kasb hunar ta'limining nazariy va amaliy masalalarini yorituvchi yirik ilmiy salohiyat mavjudligining guvohi bo'ldik.

Mehnat tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'lim va kasb tayyorgarligi, ta'limning turli muammolarini tadqiq qilish bo'yicha o'ndan ziyod doktorlik va qirqdan ziyod nomzodlik dissertasiyalar yoqlaganligini hisobga olsak, bu sohadagi ilmiy-nazariy tadqiqot ishlarining ancha keng ko'lamda ekanligi ma'lum bo'ladi. Ammo, bevosita mehnat va kasbiy ta'limning ilmiy-nazariy metodologik, tarixiy poydevori hisoblangan xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish muammolari bilan sanoqli olimlarga shug'ullanayotganliklari ma'lum bo'ldi. Ming yillardan buyon mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining o'qish o'rganish faoliyatining obyektiga aylanishi tabiiy zaruriyatdir. Xalq hunarmandchiligiga bevosita eng yaqin sohalaridan hisoblangan amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atni o'qitish muammolari bo'yicha respublikamizda tegishli, bir nafardan iborat fan doktorlari mavjudligi bu sohadagi tadqiqotlarimizni yanada kengaytirish zarurligini keltirib chiqaradi. Pedagogik olim S.S.Bulatov o'zining «o'zbek amaliy bezak san'ati» nomli qo'llanmasida, amaliy bezak san'atining qator sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib o'tdi. Amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atning turli sohaları umumlashtirilib, o'quvchilar badiiy madaniyatini asosiy tashkil

etish pedagog, tadqiqotchi olim R.Xasanov va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan qator qo'llanma, dastur, darsliklar mazmunida bayon etildi. Professor R.Xasanov o'zining o'zbek maktabida o'quvchilarning badiiy tarbiyasi va ta'limining metodik asoslari nomli monografiyasida tasviriy va amaliy san'atni umumta'lim maktablarida o'qitishning ilmiy-nazariy, metodik muammolarini tadqiq etdi. U o'zining umumta'lim maktablarining turli sinflari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida qo'llanma va darsliklarda tasviriy va amaliy san'atning mazmunini belgilashni amalga oshirdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan manbalar va biz taxlil qilgan boshqa materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi mehnat ta'limining poydevoriy zamini sifatida ta'lim tizimida o'rganish va o'rgatish maqsadida jiddiy tadqiqotlar olib borilayotgani yo'q. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishlaridagi yumushlar bevosita qo'l mehnati vositasida bajarilishi, o'zbekiston, Sharq xalqlarining (qolaversa, barcha xalqlarning milliy, ma'naviy, tarixiy, madaniy,etnik, mahalliy xususiyatlarini o'zida mujassamlantirganligi va boshqa ko'p jihatlari bevosita mehnat ta'limining o'rganish va o'rgatish obyekti bo'la olishiga zamin yaratdi. Mehnat ta'limining yaxlit, mukamallashgan tizimining to'liq yaratilganligi va ushbu ta'limning mavjud an'aviy tuzilishida xalq hunarmandchiligining o'rnini belgilash zaruriyati tadqiqotimizning muhim vazifalaridan birining shakllanishiga olib keldi. Biz tadqiqotni olib borish jarayonida mehnat ta'limidan berilayotgan bilimlarni, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni bir tizimga solishga va ushbu tizimda xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish mazmunini yoritishni o'rnini belgilashni muhim vazifalardan deb hisobladik.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'quvchilarning turli sohalar bo'yicha bilim olishlariga, kasbiy ko'nikma va bilimlarini shakllantirishlariga, o'quv tarbiyaviy tadbirlar tizimiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar ma'lum o'quv predmetlari tizimini o'rganish orqali, turli fanlar asoslari, tabiat xalq xo'jaligi, sanoat qurilish, san'at, qishloq xo'jaligi to'g'risidagi boshlang'ich bilimlarni o'rganadilar, umummehnat, mehnat va boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradilar.

O'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'quvchilarning mehnat kasbiy tayyorgarligini amalga oshiradigan o'quv predmetlarining har bir mavzuini, bobini, bo'limini, mazmunini, maqsadini, tuzilishini yaxshilash uchun zaruriy sabablardan hisoblanadi.

2–Bob. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida xalq hunarmandchiligini oʻrganishning mazmuni, tuzilishi.

2.1. 1-9 – sinflar mehnat taʼlimi mashgʻulotlarida xalq hunarmandchiligini oʻrganishning oʻziga xos xususiyatlari

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tashkil etiladigan mehnat taʼlimi mashgʻulotlari ushbu turkum taʼlimni amalga oshirishda, oʻquvchilarning umummehnat, mehnat, maxsus bilim, koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi oʻrin egallaydi. Mehnat taʼlimi mazmuni, mohiyati va vazifalariga koʻra barcha ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uygʻunlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni koʻzda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda mehnat taʼlimi maktab tizimi umumtaʼlim fanlaridan oʻrganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan quvvatli didaktik vositadir.

Tadqiqotni olib borish jarayonida avvalo, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida mehnat taʼlimining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutdik:

Maktabgacha taʼlim-tarbiya bosqichida bolalarning yosh, ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat dunyosi, jarayoni, kishilari, buyumlari toʻgʻrisidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlar uygʻotish, maqsadli ish-harakat usullari koʻproq oʻyinlar tarzida oʻrganib boriladi.

Boshlangʻich maktabda (I-IV sinflar) oʻquvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, oʻsimliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari toʻgʻrisida sodda tasavvurlar hosil qilishni koʻzda tutadi. Bu davrda oʻquvchilar mehnat taʼlimidan oʻzlashtirgan bilimlar koʻlamini oʻzlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (V-IX – sinflar) da oʻquvchilar umummehnat koʻnikma va malakalarini shakllantiriladi, qiziqish va moyilliklariga koʻra, oʻz-oʻzini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini taʼminlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umummehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xoʻjaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, mehnat faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari taʼminlanadi.

Yuqori sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiyena qoidalari va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. Shuningdek, bu davrda o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kursolarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun qo'yidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni yechish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblardan – ma'lumotlardan foydalana olish, mehnat operasiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

-o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga odatlantirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga yetkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menedjerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

Mehnat ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash vazifasini hal etadilar.

Mehnat ta'limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinf-dars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi – tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatimizning yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ustoz-shogird tizimi – mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa

ta'limida talabalar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Mehnat ta'limida elektron hisoblash texnikasi, mexanizasiya-lashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish, o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robottexnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, hatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'limi-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish markazlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhigamoslashtirilishi va ta'lim tizimi amaliyotiga qo'llanilishi, mehnat ta'limining maqsad vazifalarini amalga oshirishda asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o'quv jarayonida foydali mahsulot – tovar moddiy ne'matlar yetishtirilib, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda ta'limning qo'yidagi tamoyillariga rioya etish talab etiladi: I.Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- Nazariy ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishi;
- Ta'limning politexnizm asosida qurilishi;
- Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi;
- Ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

II.Umumdidaktik tamoyillar:

-Amaliyligi; -Ilmiyligi; -Tarbiyaviyligi; -Ijodiyliigi; -Ko'rgazmaliligi; -Moddiy-texnika bilan ta'minlanganligi; -Izchilligi; -Uzviyligi va boshqalar.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

1. Mehnat ta'limidan o'rganiladigan bilimlar mazmuni bir qancha umumta'lim fanlari (tabiyot, iqtisodiyot, atrofimizdagi olam, fizika, matematika, geometriya, jug'rofiya (geografiya), chizmachilik, kimyo, zoologiya, biologiya, anatomiya, botanika, tarix(hunarmandchilik tarixi), rasm (tasviriy san'at) va boshqalar) mazmunida yoritilgan bilimlar, g'oyalar, nazariyalar va tamoyillarga tayanadi. Shu sababli mehnat ta'limi mushg'ulotlari mavzulari ketma-ketligi yuqoridagi fanlarni o'rganish ketma-ketligiga mos holda uyg'unlashtirilmog'i lozim.

2. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari umumta'lim fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni va o'quvchilarning hayotiy kuzatishlarini amaliyotda, mehnat jarayonida sinab ko'rish uchun o'ziga xos amaliy laboratoriya vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Bu sohadagi mukammallikni ta'minlash uchun ham mashg'ulotlar ketma-ketligini tanlashda yuqoridagi fanlarning ma'lum bosqichlarini o'rganilgandan keyingina mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati hisobga olinmog'i lozim.

3. Mehnat ta'limi bir qancha umumta'lim fanlariga amaliy laboratoriya, sinov maydonchasi sifatida xizmat qilishdan tashqari uning o'zi ham mujassamlashgan fan hisoblanadi hamda qator mustaqil fanlarni qamrab oladi. Mehnat ta'limi bevosita qamrab oladigan, tayanadigan, ba'zi qismlarni umumta'lim maktablarida o'rganiladigan fanlar jumlasiga qo'yidagilarni keltirish mumkin: materialshunoslik, uyshunoslik, agronomiya asoslari, tuproqshunoslik, mashinashunoslik, texnika va texnologiya asoslari, xalq hunarmandchiligi (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, zargarlik va boshqalar), chorvachilik, mexanizasiya, ishlab chiqarish asoslari, qishloq xujaligi, kasb tanlash va boshqalar

4. Mehnat ta'limining amaliyligi va mujassamlashgan o'quv fani ekanligidan uning alohida moddiy, xom ashyo, jihozlar ta'minotiga muhtojligi, o'ziga xosligi kelib chiqadi. Ushbu ta'limning to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun turli asbob uskunalar, jihozlar, qurilma va moslamalar, shiyponlar, maxsus binolar avtomobil va traktorlar (agregatlar), trenajyorlar, yer maydonlari, tajriba sinov va o'quv mashg'ulot maydonlari, materiallar (metallar, metallmaslar, gazlamalar, plastmassalar va hakoza) zarurdir.

5. Ushbu ta'lim sohasi alohida o'quv, didaktik, metodik ta'minotiga egadir: Plakatlar, chizmalar, chizish, o'lchash, rejalash va moslama asboblari, operasion, yo'l-yo'riqli, xavfsizlik, yo'riqnomalar, xaritalar, pasportlar va qurilmalarning guvohnomalari,

tarqatmali va ko'rsatmali didaktik vositalar, shablonlar, diafilmlar, o'quv filmlari va boshqalar.

6. Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlilik va keng ko'lamdaliligi tufayli turli sohalar bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorlangan mutaxassislarga muhtojligi (ushbu sohani tashkil etuvchi o'qituvchi – mutaxassislar kadrlar to'g'risidagi biz dissertasiyamizning 3-bobida batafsil to'xtalamiz).

7. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari qo'yidagi tiplarga bo'linadi: a) Nazariy bilimlarni o'zlashtirish; b) Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish; v) Ishlab chiqarish mashg'ulotlari. Ushbu ta'limda keyingi ikki tip mashg'ulotlarining tashkil etilishi, yo'lga qo'yilishi, ta'minlanishi, butun ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sifatini belgilaydi.

Kuzatishlar natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda shunday fikr aytish mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlashimiz o'rindir.

Mehnat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi an'anaviy ko'rinishda qo'yidagicha amalga oshiriladi:

1. I-IV sinflarda – keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil materiallar (qog'oz, karton qirqimlari, plastilin, loy va boshqalar) bilan tanishtirish, ulardan an'anaviy va milliy o'yinchoqlar yasash, didaktik materillar tayyorlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish faoliyatiga o'quvchilarni odatlantirish, turmush, sanoat va hunarmandchilik buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini tayyorlashni o'rgatish, turli xildagi shakllar, naqshlar yasashni o'rganishlaridan qishloq xo'jaligi, uy ekinlari va chorva mollari to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish va boshqalardan iborat. Bu davrda mehnat ta'limi darslariga ajratilgan o'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bir soat davomida o'quvchilarga bajaradigan yumushlari to'g'risida umumiy nazariy tushunchalar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, amaliy hujjat jarayonida ishtirok etiladi, buyumlarni yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi.

2. V-IX sinflar – mehnat ta'limida amaliy o'quv mashg'ulotlari orqali xalq xo'jaligi sohasini qisman yo'naltirilgan holda o'rgatiladi.

I. Texnik mehnat: a) keng ko'lamda ishlatiladigan materiallar (yog'och va metallar) qog'oz, karton, shisha, plastmassa va boshqalarga ishlov berish; b) elektrotexnik ishlar; v) uy-ro'zg'or buyumlarini o'rganish va tuzatish; g) tuzuvchilik, qurish-loyihalash asoslari bilan tanishish.

Ushbu kursni o'rganishda o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall), qog'oz, shisha, plastmassa va boshqalarning xususiyatlari, xossalari to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar, ularni rejalash, arralash, teshish, yo'nish, pardoqlash ishlari va ularda ishlatiladigan asboblarni tuzilishi, ishlashi, qo'l, elektr va mexanizasiyalashtirilgan jihozlar, yangi texnika va ilg'or texnologik xaritalari, ularni tuzish, ular bilan ishlash, mehnat qonunchiligi va xavfsizligi, sanitariya qoidalari to'g'risida va shu kabi nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Texnik mehnatni o'rganish jarayonida o'quvchilar turli xil qo'l asboblarni (rejalash, teshish, yo'nish, arralash, sovuqlayin va qizdirib ishlash va boshqalar) amaliy malakalarini, texnologik xaritalar bilan ishlash, mo'ljallash, texnikaviy andozalash (shablonlar), hujjatlar bilan ishlash hamda boshqa turdagi kasbiy malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

II. Xizmat ko'rsatish mehnati: a) gazlamalarga ishlov berish, tikuvchilik asoslari; b) oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish-oshpazlik va qandolatchilik asboblari; v) uy-ro'zg'or yuritish asoslari, uy-ro'zg'or jihozlari kabi qismlardan iborat bo'lib, qo'yidagi nazariy bilimlarni o'rgatishni nazarda tutadi: oziq-ovqat mahsulotlarining inson hayotidagi roli, xususiyatlari, to'yimlilik, turlari, ovqatlanish me'yori va tartibi; taomlar, turlari, milliy taomlar, oshxonalarining jihozlanishi, oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi qoidalari; kiyimlar turlari, ahamiyati, gazlamalarni ishlab chiqarish fabrikalari, tikuv mashinalari, yigiruv, tikuv mashinalarning turlari, umumiy tuzilishi va ishlashi, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalarida keng tarqalgan kasblar, ularning tavsifnomalari, yashash tarzi va shart-sharoitlari, oila jamg'armasi va uni sarflash, qizlar va o'g'il bolalar gigiyenalari va boshqalar.

Bu kursda o'quvchilar qo'yidagi ko'nikma va malakalarini egallaydilar: oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, ularga dastlabki va asosiy ishlov berish; turli xil uy-ro'zg'or asboblarni ishlatish; turli taomlar tayyorlash; elektrlashtirilgan uyqro'zg'or vositalarini ishlatish, boshqarish; kiyimlarni bichish, tikish, tuzatish va shu kabilar.

III. Qishloq xo'jalik mehnati: o'quvchilarni moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari

yetishtirish bilan tanishtiradi. Bu kursni o'rganish jarayonida o'quvchilarda qo'yidagilar haqida tushuncha va boshlang'ich kasbiy ish harakat usullarini tarkib topishi ko'zda tutiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning ahamiyati, o'ziga xos xususiyati va sohalari. Dehqonchilik va chorvachilikni bir-biriga uyg'un holda rivojlantirish istiqboli hamda zaruriyati. Bir, ikki va ko'p yillik ekinlarni yetishtirish – agronomiya asoslari; qishloq xo'jalik mexanizasiyalash, kimyolashtirish, elektrlashtirish, meliorasiyalash va avtomatlashtirish asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish, tashkil etish, bajarilgan ishlar yoki yetishtirilgan maxsulot sifatini tekshirish, ilg'or texnologiya va iqtisodiy masalalar; madaniy ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, ekinlarni o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar. Erning tuzilishi, holati va unumdorligi: Yerga ishlov berish va alamashlab ekishning ahamiyati hamda unda qo'llanadigan qurollar, moslama va mashinalarning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ularga qo'yilgan agrotexnik talablar: yer unumdorligi va ekin hosildorligini oshirishda ug'itlarning roli. Ug'it turlari, ug'itlash muddati, me'yori va unda ishlatiladigan mashinalar. Hosildorlikka urug'lik materialining ta'siri. Urug' va kuchat ekish muddati, me'yori va usullari. Urug' va ko'chat ekish mashinalariga ko'yilgan agrotexnik talablar, ularning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ish rejimiga rostdash ishlari. Urug'larni tekis undirib olish chora-tadbirlari. Ekinlarni qator oralig'iga ishlov berish, sug'orish va himoya qilish ishlarining ahamiyati hamda bu ishlarda ko'llaniladigan qurollar, moslamalar va mashinalarning tuzilish, ishlashi va ularga qo'yilgan agrotexnik talablar.

G'alla, don-dukakli, tuganakli va ildizmeva, sabzavot, poliz, meva, moyli va tolali ziravor ekinlar yetishtirishning ahamiyati va unda ishlatiladigan qurollar va mashinalar majmuasi.

Yopiq joylarda (issiqxonalarda) hosil yetishtirishning ahamiyati, istiqboli, o'ziga xos xususiyatlari va ularda ishlatiladigan kichik o'lchamli mashinalar.

Yetishtirilgan hosilni yigib-terib olish birlamchi ishlov berish va saqlash qoida hamda chora-tadbirlari.

Chorva mollarining kelib chiqishi, xonakilashtirishi va tarqalishi, chorvachilik biologiyasi va tarmoqlari (qoramolchilik, quychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, quyonchilik, chuchqachilik, muynachilik va hokazo); chorvachilikda naslchilik va seleksiya asoslari. Chorvachilikni mexanizasiyalash, avtomatlashtirish va

maxsuldorligini oshirish usul va vositalari. Chorva mollarini boqish, oziq birligi, ozuqabop ekinlar. Chorvachilikda sanitariya-gigiyena, zootexnika, zooveterinariya asoslari. Inkubator - parrandachilik majmualari.

Qishloq xo'jalik korxonalarini xususiyashtirish, kichik korxonalar barpo etish, ilg'or texnologiyani joriy etish istiqbollari va ularni iqtisodiy masalalari.

Mehnatni ilmiy qiluvchi ommaviy kasb-hunar sohiblari, ularning o'rni, vazifalari, ishlash shart-sharoitlari va sulolari.

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rib o'tilgan an'anaviy ko'rinishi ancha ulkan va keng ko'lamda bo'lganligi bilan birgalikda, xalqning milliy, maxalliy, etnik, tarixiy xususiyatlarini, yoshlarni kasb-hunarlariga yo'naltirishning mintaqaviy xususiyatlarini, ijodkorlik san'atini to'lik ifodalamaydi. Bundan tashqari, boshqa fanlardan farqli ularoq, mehnat ta'limida o'quvchilarning jinsiy xususiyatlari, ya'ni, o'g'il va qiz bolalar mehnati mazmunan ham, shaklan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Mehnat ta'limining an'anaviy ko'rinishidagi "texnik mehnat", "maishiy xizmat ko'rsatish mehnati" deb nomlangan, ilmiy asoslanmagan, qolaversa, mutlaqo mavxum, tushunarsiz terminlar, galiz jumlar bu ta'limning yanada aniq maqsadsiz tashkil etilishiga olib keladi. Biz mehnat ta'limining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xalqning mehnat faoliyatining milliy, ma'naviy, madaniy, tarixiy, etnik xususiyatlarini ifodalaydigan xalk hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishni ham mustaqil 4-yo'nalish sifatida kiritishni lozim deb topdik.

IV. Xalq hunarmandchiligi asoslari: Ushbu o'quv mehnat ta'limining etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, mahalliy, jug'rofiy asoslarini ifodalaydi va 150 xildan ziyod turga ega: ganch uymakorligi, naqqoshlik; yog'och, tosh va suyak uymakorligi, kandakorlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, miynogarlik, pichoqchilik, zargarlik, xalchilik, gilamchilik, chopon tikish, muxrkandalik, kigiz bosish, do'ppichilik, mu'jaz rang-tasvir, sharq miniatyurasi, rextagarlik, zarduzlik, patduzlik, kashtachilik; milliy musiqa asboblarini tayyorlash va ta'mirlash, me'morchilik, savat to'qish, buyrachilik, novvoychilik, utov tayyorlash, oshpazlik, milliy o'inoqlar tayyorlash, egarchilik, ot-ulov anjomlari tayyorlash (anjomasozlik), kosibchilik, imoratsozlik (binokorlik) va boshqa asosiy yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligining tuli sohalarini o'rganishda o'quvchilar qo'yidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik

ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o'rni, sohasining tarqalishi, jug'rofiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termez, Nukus, Andijon, Fargona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'iga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahralarining manbalari, turlari, tarqalishi ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda o'quvchilar qo'yidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizasiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yul-yo'riqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 yo'nalishi, o'quv kurslari joylarning sharoitlari, ixtiyoji va istiqbolini hamda o'quvchilarning qiziqishlari, jinsiy xususiyatlarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda, har bir kursni alohida yoki bir sinfda har bir kursni o'quv yiliga taqsimlab tashkil etish mumkin. Bunday hollardagi o'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatining o'ziga xos juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. o'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatini tashkil etishda maktablarning o'quv-moddiy bazasi va o'quvchilar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari mehnat ta'limiga kiritilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. Chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani urab o'tgan ishlab chiqarish sohaslarini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur edi. Xalq hunarmandchiligi esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy)

tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umummehnat, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Mehnat ta'limining yana bir xususiyati asosiy mehnat operasialarining qo'lda bajarilishini o'rgatishga imkoniyatlari beqiyosligidir. Mehnat ta'limi o'quv-dars tizimiga kiritilayotgan davrda ham (bundan 130 yil ilgari) asosiy maqsad, bolalarning turli mehnat operasialarini qo'lda bajarilishini takomillashtirishni nazarda tutilgan edi. Ammo, fan texnikaning taraqqiyotiga kur-kurona ergashish va ta'limni majburan moslashtirishga urinishlar mehnat ta'limining bevosita kul mehnati mazmunidan chetlashib borishga sabab bo'la bordi. Ishlab chiqarishda elektrlashtirilgan, mexanizasiyalashtirilgan, yarim avtomatlashtirilgan mehnat ta'limi yumushlarining paydo bo'lishi va ularni maktab mehnat ta'limida o'rgatishga urinishlar ushbu sohaning maxalliy sharoitlarda deyarli amalga oshirilmaydigan, mavhum sohaga aylanishiga olib keldi. Ko'pgina qishlok maktablari, tuman markazlaridagi, kurg'onlardagi maktablarda ham (bunday maktablar respublikamizda qariyb 50 foizni tashkil etadi) mehnat ta'limining elektrlashtirilgan va mexanizasiyalashtirilgan yumushlarini bajarishga har qanday sharoitda ham, jumladan, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, juda qimmat turadigan uskunalar, stanoklar, qurilmalar, trenajyorlar, minitraktorlar va avtomobillar bilan yalpi ta'minlanish imkoniyatiga ega emaslar. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, "stanoklashtirilgan" ta'minot yetarli bo'lmagach, bunday ta'lim mashg'ulotlari ko'ruk gapdan, og'zaki tushuntirishdan iborat bo'lib qolaveradi, shuning uchun, bizning fikrimizcha "stanoklashtirilgan" mehnat ta'limi mazmunini barcha maktablarga o'rgatishni yalpi ravishda tavsiya etilmasligi lozim. Qolaversa, bunday mehnat ta'limini "majburan" urgangan yoshlar o'zlarining kelgusi hayotlarida elektrlashtirilgan, "stanoklashtirilgan" ish o'rinlariga yalpi ravishda ega bo'lishlari ham mavxumdir.

Fikrimizcha, maktab mehnat ta'limi mazmuni asosan, qo'l mehnati yumushlarini bajarishga yo'naltirilsa-yu, ba'zi imkoniyati yetarli bo'lgan ta'lim muassasalarigina, ya'ni zavod va fabrikalar xududida joylashgan maktablargina ana shunday "stanoklashtirilgan" ta'limni tashkil qilish tavsiya etilsa, haqqoniyrok bo'lardi. Bunday hollarda, yoshlarning kelgusida ish o'rinlari bilan ta'minlanishlari ham ancha xayotiydashgan bo'lardi.

Mehnat ta'limining biz taklif etayotgan yangi tizimida "texnik mehnat", "xizmat ko'rsatish mehnati" kabi galiz, asossiz jumalardan voz kehdik. Masalan, "texnik

mehnat" so'zini olib qarasak, sirdan qaraganda texnikani o'rganish mehnati mazmunini anglatganday ko'rinsa-da, amalda, "asboblarning mehnati", "badiiy mehnat", "texnologik mehnat", "traktorlar mehnati", "mashinalar mehnati" kabi so'zlarning yanada ko'payishiga zamin yaratadi. "Xizmat ko'rsatish mehnati" so'zi esa, bundan ham mavhumroq, asossizroq bo'lib, qiz bolalardan faqat "xizmatkorlar", "xizmat ko'rsatuvchilar", "tayyorlash zarur" degan ma'noni tushunish mumkin.

Mehnat ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'lda bajariladigan yumushlar mazmunini tanlashda xalq hunarmandchiligining imkoniyatlari nihoyatda cheksizdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Moddiy ta'minot bo'yicha davlat yo'nalishi kuchsizlangan hozirgi davrda ham, keyingi bosqichlarda ham mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining mehnat va kasb ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish va o'rgatish, quruq mehnat yumushlarini bajaradigan "ishchi-robotlar", "ishchi-mexanizmlar" tayyorlashni qisman bo'lsa-da inkor etadi va ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, yuqori darajada insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, muomilali, odob-axloqli insonlarni tarbiyalashda imkoniyatlari juda yuqoridir.

2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkaziladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarda xalq hunarmandchiligini o'rganishning mazmun va shakllari

O'quvchilar mehnat ta'limining turli sohalari, yo'nalishlari bo'yicha bilim olishlari, tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlarida turli o'quv-tarbiyaviy tadbirlar ham muhim o'rin egallaydi. Biz o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni belgilashda umumta'lim maktablarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, ustaxonalarda, maxalla, jamoatchilik orasida o'quvchilar ishtirokida o'tkaziladigan o'quv-o'rganish, tarbiya maqsadlarida tashkil etiladigan, maktab o'quv rejalari va dasturlari maqsad, vazifalariga zid bo'lmagan holda tashkil etiladigan tadbirlar majmuini nazarda tutdik.

Mehnat ta'limi amaliy mazmundaligi va ishlab chiqarish bilan bevosita va uzviy bog'liqligi tufayli turli o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni bolalar ishtirokida o'tkazilishining ahamiyati juda kattadir.

O'quvchilarning mehnat ta'limidan o'tkaziladigan dars mashg'ulotlarida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini, ishlab chiqarish va mehnat jarayoni to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, rivojlantirishda hamda mustahkamlashda, hamda bevosita unumli mehnat jarayonida ishtirok etishlarini ta'minlashda tanishib chiqqan 20 dan ziyod turdagi o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning o'rne juda kattadir. Tadqiqotimizni olib borish jarayonida mehnat ta'limida qo'yidagi o'quv-tarbiyaviy tadbirlar mavjud bo'la olishligini kuzatdik:

UE-1. Hunarmandchilik va mehnat ta'lim sohalari bo'yicha tashkil etiladigan turli tugaraklardagi mashg'ulotlar.

UE-2. Maktab, ishlab chiqarish korxonalari va xususiy shaxslar tasarrufidagi hunarmandchilik ustaxonalari olib boriladigan o'quv, tarbiyaviy, masulli faoliyatda qatnashish. Bunday ustaxonalar respublikamizda «Usto», «Meros», «Hunarmand» kabi uyushmalarga birlashtirilgan.

UE-3. Ta'lim muassasalarida turli fanlar bo'yicha tashkil etiladigan laboratoriyalardagi ijodiy faoliyatda ishtirok etish.

UE-4. Maktab tajriba yer uchastkasida olib boriladigan sinov ishlari, maxsuli faoliyatida qatnashish.

UE-5. Xomiylik va otalik korxonalari ishlab chiqarish uchastkalarida tashkil etiladigan amaliy faoliyat.

UE-6. Ta'lim muassasalari qoshida tashkil etiladigan o'quvchilar va o'qituvchilar mehnatiga tayangan maktab kooperativlari, kichik korxonalar, uyushmalar.

UE-7. 5-9-sinf o'quvchilari qamrab oladigan bevosita davlat, o'quv rejasiga kiritilgan mehnat amaliyotlarida qatnashish.

UE-8. Turli xil mulkchilik shakllaridagi ishlab chiqarish korzonalariga, me'morchilik obidalariga, muzeylarga va boshqa diqqatga sazovor joylarga ishlab chiqarish sayoxatlari uyushtirish.

UE-9. Mehnat bayramlari, anjumanlarini nishonlash.

UE-10. Hunarmandchilik buyumlari va mehnat faoliyati natijalariga asoslangan ko'rgazmalar tashkil etish.

UE-11. Bolalar bog'chalari, mehnat va urush nogironlariga, faxriylariga, keksalarga mehribonlik va amaliy mehnat yordami ko'rsatish.

UE-12. Xomiylik va otalik tashkilotlarining mavsumiy ishlariga yordam ko'rsatish, xasharlarda ishtirok etish.

UE-13. «Yashil» va «Zangori» quriqchilar uyushmalari ishlarida qatnashish.

UE-14. Oilaviy, xususiy hunarmandchilik kichik korxonalari va fermer xo'jaliklari faoliyatida ishtirok etish.

UE-15. Hunarmandlarning oilaviy kasb-hunar sulolalari faoliyatini davom ettirish an'anasida ishtirok etish.

UE-16. Yakka tartibda shogirdlik shaklida kasb-hunar o'rganish va yollanma shartnomali mehnatda ishtirok etish.

UE-17. o'quvchi va yoshlarning yozgi mehnat va dam olish oromgohlarida ishtirok etish.

UE-18. Tuman, viloyat, respublika va davlatlararo miqyosdagi turli musobaqalar, konkurslar, ko'rik va kurgazmalarda ishtirok etish.

UE-19. Mustaqil holda (ustoz yoki murabbiy maslahatlari asosida) ijodiy hunarmandchilik, ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanish.

UE-20. Ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik ijodiy, mehnat uyushmalari faoliyatida ishtirok etish va boshqalar.

O'quvchilarning mehnat faoliyatining bu ko'rinishlarini tashkil etishda ularning yoshi, shaxsiy, ruhiy, fiziologik, jismoniy va aqliy xususiyatlari, pedagogik va metodik, huquqiy mezonlar, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiyena qoidalari va mehnat

xavfsizligi talablari milliy, maxalliy, an'anaviy va noan'anaviy aqidalar, urf-odatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik sharoitlar, xususiyatlar hisobga olinishi zarur. Albatta, tadbirlarni o'tkazishda ma'lum ta'lim sohasidagi, sinflardagi, maktablardagi o'quv rejaları maqsad va vazifalari bilan uyg'unlashtirilmog'i lozim.

Mehnat amaliyotining qulay tomonlaridan biri shuki, u bir tomondan tadbir o'quv yillik rejasining tarkibiy qismi hisoblansa, ikkinchi tomondan zamonaviy, maxsuldor o'quv-tarbiyaviy tadbir hisoblanadi.

O'quv rejasi bo'yicha mehnat amaliyoti – yozgi ta'tilni qisqartirish evaziga qo'yidagicha muddatlarda tashkil etiladi: 5-6-sinflarda 10 kun, 7-8 sinflarda 16 kun, 9-10 sinflarda 21 kun.

Ushbu muddatlarni tegishli 12, 18, 24 kunlarga uzaytirish zarur, chunki, amaliyot muddatlari taqvim haftalariga mos ravishda 2, 3, 4 hafta qilib belgilanadi.

1998 yilda taklif etilgan Tajriba-sinov o'quv rejalariga muvofiq O'zbekistonning qishloq joylardagi maktab o'quvchilari mehnati mavsumiyliги, yakka tartibdaligi, qo'l mehnatini kup talab etishi va iqlimiy o'ziga xosligi bilan xalq xo'jaligining boshqa sohalaridan farq qiladi. Mehnat amaliyoti mazmuni uslubiy-pedagogik, psixologik jihatdan takomillashtirishni talab etadi. o'quvchilar mehnat amaliyoti nazariy va metodik masalalarning turli yillarda pedagogik olimlar rivojlantirib takomillashtirdilar.

Xalq hunarmandchiligi buyicha tashkil etiladigan mehnat amaliyotini tashkil etishda uchraydigan ziddiyatlari, muammolari qo'yidagilardir:

1. Mehnat topshiriqlarning milliy ruxdaligi va murakkabligi bilan o'quvchilarda shakllantirilayotgan ishlab chiqarish, maxsus kuniama va malakalarining mahorat darajasi an'anaviy, zamonaviy, ekanligi o'rtasida;

2. o'quvchilarda xalq hunarmandchiligi bo'yicha kasb-hunarlarni egallashga xoxishlari, istaklari va bu sohalarning umumta'lim maktablarida urgatilmasligi va bu sohalarning keng tarqalganligi o'rtasida;

3. Mehnat amaliyotini o'tkazish mobaynidagi turli xil tashkiliy, pedagogik, psixologik, uslubiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarining bajarilishi bilan amaliyot rahbarlarining bu sohani boshqarishga kasbiy mahorat jihatidan tayyorgarlikning qoniqarsiz ekanligi o'rtasida;

4. Xalq hunarmandchiligi sohalarining ko'pchiligi qo'l mehnatiga asoslanganligi bilan, o'quvchilarga doimiy ish o'rinlarining asoslanganligi bilan, o'quvchilarga doimiy ish o'rinlarining yetishavermasligi o'rtasida.

Mehnat amaliyoti asosan, 3 bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqich. Tayyorgarlik jarayoni.

2-bosqich. Asosiy davr – ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish.

3-bosqich. Yakuniy.

Tayyorgarlik davrida qo'yidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Amaliyot o'tkaziladigan obyektlar – davlat, xususiy, qo'shma, shaxsiy korxonalar tanlanadi va rasmiylashtiriladi; kirish, mehnat xavfsizligi yo'l-yo'riqlari o'tkaziladi. Texnika, elektr, yong'in, suv, gaz xavfsizligi qoidalarini o'rganiladi, sanitariya-gigiyena qoidalari bilan tanishiladi.

Mehnat amaliyoti dasturi tuziladi, ushbu tadbir amaliyotning asosiy xujjati bo'lib, u qo'yidagi qismlardan iborat: a) umumiy qoidalar, b) amaliyotning maqsadi va vazifalari, v) bajariladigan ishlarning turlari va mazmuni, g) o'quvchi ishchi guruhlarining korxonada ishlab chiqarish bo'limlari bo'ylab harakatlanish chizma-grafigi, d) amaliyotchilarni yakka tartibdagi ishlab chiqarish jamoat topshiriqlarining mavzulari rejasi, ye) xo'jalik yuritishning ilg'or usullari bilan xalq hunarmandchiligi ustalarining ilg'or ish tajribalari bilan tanishishning mavzuli rejasi, yo) amaliyot davrida o'tkaziladigan ishlab chiqarish sayoxatlarining maqsad va vazifalari, obyektlarini belgilash, k) amaliyot davrida foydalaniladigan o'quv, uslubiy, pedagogik, psixologik, texnikaviy, texnologik, ilmiy-ommabop adabiyotlar, tavsiyanomalar, tezkor va yo'llanma xujjatlar va xaritalarning turlari va xillarini tanlash, saralash, j) amaliyot davrida amalga oshiriladigan pedagogik nazoratning rejalashtirilishi; z) hisobotga qo'yiladigan talablar ishlab chiqiladi;

Amaliyotni o'quvchilarning yosh, aqliy, individual, psixofiziologik, maxalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'yidagi ko'rinishlarda tashkil etish tavsiya etiladi:

1. o'quvchilar mehnat uyushmasi tarkibida;
2. Qishloq-guruh shaklida;
3. Korxonada katta ishlab chiqarish brigadasi tarkibida o'quvchilar guruhi shaklida;
4. Oilaviy, hunarmand-shogirdlik ko'rinishida.

Mehnat amaliyotining asosiy davrida, ya'ni ishlab chiqarish, topshiriqlarni bajarish bosqichida o'quvchilar korxonasining mazkur bo'limidagi turli maxsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan, turli xil texnika vositalari bilan, mexanizmlar, jihozlar, asboblardan, moslamalar va qurilmalar bilan tanishadilar. Turli xil mehnat qurollari bilan munosabatda bo'lish jarayonida ularning tuzilishi, muhim va havfli sohalari, himoya vositalari bilan, yakka tartibdagi himoyalash vositalari bilan, maxsus ish kiyimlari, asbob-uskunalarini hamda materiallarni saqlash qoidalari bilan tanishadilar. Mehnat amaliyoti vaqtida qo'yidagi yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi:

1. Kirish;
2. Joriy;
3. Xavfsizlik;
4. Yozma;
5. Yakuniy yo'l-yo'riqlar.

1. Kirish yo'l-yo'rig'i mehnat topshiriqlarini bajarishda qo'yidagi izchillikda tashkil etiladi - o'quvchilarni bajariladigan ishlar hajmi va miqdori bilan tanishtirish, bajarilayotgan mehnat topshiriqlarning va tayyorlanayotgan mahsulotlarning amaliyot o'tkazilayotgan korxonada, xo'jalik, tuman, viloyat va respublikaning iqtisodiy ahvolini rivojlantirishdagi ahamiyati; maktab o'quv kurslari, mehnat ta'limining nazariy, amaliy va ishlab chiqarish darslarida shakllantiradigan umummehnat, maxsus va hunar ko'nikma, malakalarining qaysi tur topshiriqlarini, ishlarni bajarishga zarurligi ta'kidlanadi, aniqlashtiriladi. Masalan, zoologiya kursini o'tishdagi «Sut emizuvchilar» (6-sinf), «Chorva hayvonlari» mavzusi va mehnat ta'limining «Chorvachilik», «Chorvachilik mahsulotlari» (7-8 sinf) mavzularidagi jun, ipak, tivitlarning gilamchilikda, tuquvchilikda, kashtachilikda, kunchilikda, poyabzal va egar-jabduklar tikishda qo'llanilishini aytib o'tiladi. Mehnat ta'limi kursining «Metallarga ishlov berish», «Yog'och bilan ishlash» kabi bo'limlarini o'rganishda hosil qilingan bilim, kunikma va malakalar xalq hunarmandchiligining metall va yog'och o'ymakorligi, zargarlik, miskarlik, tunukasozlik, sandiqsozlik, beshiklar tayyorlash kabi sohalarda qo'llanilishi aytib o'tiladi.

Kirish yo'l-yo'riqlarida xo'jalik yuritishning ilg'or uslublari, mehnatni me'yoralash, xo'jalik hisobi, xalq hunarmandchiligining sohalari mazmuni bilan tanishtiriladi.

Ushbu yo'l-yo'riq ishlab chiqarish va ta'limiy yo'nalishda berib boriladi. Ishlab chiqarishda amaliyotchilar bajarilayotgan mehnat topshiriqlarining mazmuni, mohiyati tushuntiriladi, korxonada tuzilishi, mavjud texnikalar va texnologik jarayon, xo'jalik yuritish uslublari yoritiladi. Ta'limiy yo'nalish esa unumli mehnat jarayonida qul va mexanizatsiyalashtirilgan mehnatning ta'limning asosiy omillaridan ekanligi, me'yoralash, o'quv rejalarining tarbiyaviy tomonlari, mehnat shaxsning xislatlari shakllantirishdagi roli ta'kidlab o'tiladi.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'tkazilayotgan mehnat amaliyotida o'quvchilar qo'yidagi texnologik yumushlar (operasiya)ni bajaradilar:

1. Turli xil materiallarni ishlov berishga tayyorlash – yog'och materiallarni zaruriy ulchamlarda qirqish, tozalash, yaltiratish, kuzlarni yunish, materiallarni tekislash, gilamchilik uchun jun va paxtalardan iplar, arqonlar tayyorlash;

2. Zaruriy jihozlarni tayyorlab olish, masalan, gilamchilikda to'quvchilar ish o'rnini, qilich, urma, ayri, urchuk, qaychi va boshqalar; ganchkorlikda xavonchalar, andovalar, skalpel, pichoq, kosacha, suv va boshqalar;

3. Rejalash yoki belgilash – yog'och uymakorligida zaruriy o'lcham va shakllarni belgilab olish, shakllarni chizib olish, shaklli buyum qismlarini tayyorlashda (masalan, xontaxta, chorpoya, kursilar tayyorlashda shaklli oyoqchalar, ustunlar, ustki taxtalar ulchamini belgilab olishda);

4. Turli xil kesib ishlash operatsiyalarini bajarish – yog'och uymakorligida yog'ochlarni uyish, metall uymakorligida metall plastinkalarni, zargarlikda sim va rangli metallarni, do'ppichilik, choponlar va boshqa xil milliy kiyimlarni tikishda gazlamalarni, ipakchilikda iplarni, tunukasoqlikda metall plastinkalarni va x.k.;

5. Biriktirish – egar-jabduklar tayyorlashda turli xil qismlarni, imoratsoqlikda turli xil tusinlarni, yog'och qismlarni sandiqsoqlikda yog'och metall qismlarni, pichoqchilikda pichoq asosini va dastalarini va x.k.;

6. Pardoqlash – xalq hunarmandchiligida buyumlarni tayyorlashda yakuniy operatsiyalardan hisoblanib, buyash, jilvirlash, tikish, o'lchash, silliqlash kabilar yumushlarni qamrab oladi.

M: pichoqchilikda pichoqning metall asosi, qismlari korroziyaga chidamli moddalarga (xrom, nikel) qoplanadi, sandiqsozlikda sirlanadi va x.k.

II-Joriy yul-yo'riqlar amaliyotning asosiy davri – ish davrida amaliyot rahbari, murabbiylar, xalq ustalari, ishlab chiqarish ustalari, mehnat ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Ushbu yo'l-yo'riqda o'quvchi-amaliyotchilarning mehnat yumushlarini bajarishlari to'g'riligini, qo'yilgan davlat talablariga mos kelishlari, asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanishlarini kuzatib, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni yakka tartibda tuzatib boradilar.

O'qituvchi yosh murabbiylar mehnat yumushlarini namoyish etish, tushuntirish uslubi orqali bu yo'l-yo'riqni olib boradilar.

III-Yozma yo'l yo'riqlar o'quvchi-amaliyotchilarga ma'lum yumushlarni va buyumlarni tayyorlash uslublari ko'rsatilgan, tariflangan smetalar, texnologik, operasion yo'l-yo'riq xaritalari, buyum eskizlari, chizmalari hamda suratlari bo'lishi mumkin. Yozma yo'l-yo'riqlar ish mobaynida o'quvchilarga, har bir kishiga yoki har bir guruh bitta tarqatma material sifatida berilishi mumkin. Ushbu yo'l-yo'riqlarda buyum o'lchamlari, ularning qismlarini tayyorlash uslublari, zaruriy jihozlar, harajatlar miqdori ko'rsatilishi mumkin.

IV-Mehnat xavfsizligi yo'l-yo'riqlari barcha ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan asosiy tadbirlardan hisoblanib, butun amaliyot davomida yoki yakuniy qismlarida o'tkaziladi. Xavfsizlik yo'l-yo'riqlari ishchining xayotini, sog'ligini, ish qobiliyatini saqlab qolish, mehnatni ilmiy tashkil etish, ishchi hunarmandlar sarflayotgan materiallarni tejash maqsadida va ishlatilayotgan asbob-uskunalarining foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida, mehnat jaraxatlanishi oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Xavfsizlik yul-yuriqlari qo'yidagi turlarga bo'linadi:

1. Mehnat qonunchiligi – mazkur korxonada ishlagan ishchining huquqiy burch va vazifalari, ta'minlanishi, dam olishi, maoshlari va nogironlik ta'minoti miqdorini aniqlashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Bolalar va qizlar mehnati, iqlimiy, mavsumiy ta'sirlar, ximiyaviy ta'sirlar, mehnatga haq to'lash, ish me'yorlarini belgilash va boshqalar qator yillardan buyon hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

2. Elektr xavfsizligi – turli xil elektrlashtirilgan asboblari yoki mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalar bilan ishlaganda rioya qilinadigan qoidalardir. Bu holda mehnat jarohatlanishlari eng ko'p kutiladigan xavfli holatlar yuzaga keladi.

3. Gaz xavfsizligi – turli xil gazli payvand ishlarini olib borishda, tabiiy gazdan (yoqilg'i) foydalanishda, gaz bilan yuradigan transport vositalarini gaz bilan ta'minlashda, yurishda va boshqa xollarda rioya qilinadigan zaruriy hollardir.

4. Yong'in xavfsizligi – ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, jamoat binolarida yong'in chiqishining oldini olishdir. Turli chiqindilar, tez yonadigan vositalardan madaniyatli foydalanish qoidalarini o'rgatish nazarda tutiladi.

5. Suv xavfsizligi – amaliyotchilarning dam olish paytlarida oqar suv xavzalaridan foydalanish va cho'milishlari, oilada, korxonada ichimlik suvlarini tejash, isrof qilmaslik qoidalaridir.

6. Texnika xavfsizligi – ishlab chiqarish jarayonida turli xil texnika, transport, stanoklar mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalardan tejamli foydalanish qoidalarini o'rganish hisoblanadi.

7. Sanitariya-gigiyena qoidalari – mehnatni ilmiy tashkil etishning muhim qismi bo'lib, ishchilarning ish o'rinlari tozaligi, yorug'ligi, havosi, zaruriy binolar bilan ta'minlanishi, changlarning, turli chiqindilarning ishchilar salomatligiga va mehnat samaradorligiga zarar yetkazmasdan tozalab turishiga doir qoidalardir. Yuvinish, ovqatlanish, uxlash, dam olish, o'qish, sport bilan shug'ullanish joylarining sanitariya-gigiyena qoidalariga ko'ra tashkil etilishi mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Xavfsizlik qoidalari amaliyot boshlanishidan oldin tayyorgarlik davrida 12 soatlik o'quv dasturini o'rganish sifatida amalga oshiriladi.

V. Yakuniy yo'l-yo'riqlar – amaliyotning asosiy ish davrida har bir ish navbati tugagach, har bir 5, 10 kunlik (xaftalik) yakunida va butun amaliyot yakunida o'tkaziladi. Ushbu yul-yo'riqlar davomida murabbiy yoki o'qituvchi (amaliyot rahbari) tayyorlangan buyumlar sifatini yoki bajarilgan mehnat yumushlari to'g'riligini tekshiradi. Xavfsizlik qoidalarining bajarilishini, mehnat nizomiga rioya qilinishini tekshiradi muhokama qiladi, ish bosqichlari natijalariga yakun yasaladi, yutuqlar rag'batlantiriladi,

xato va kamchiliklar ko'rsatib o'tilib, tuzatish yo'llari aytiladi. Mehnat, jamoat, o'quv topshiriqlarining bajarilishi darajasi muhokama qilinadi.

O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etilayotgan mehnat amaliyotida pedagogik nazoratni tashkil etish, o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida xalq hunarmandchiligi bo'yicha mehnat amaliyotini o'tkazishda, tashkil etishda rahbarlik asosiy o'rinlarni egallaydi.

Amaliyotga rahbarlik maktab direktori, direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkilotchisi, mehnat ta'limi o'qituvchisi, amaliyot o'tkaziladigan korxonaning yetakchi mutaxassisi, korxonadan amaliyotga rahbarlik sifatida tayinlangan mutaxassislar, murabbiylar (pedagogik, psixologik, uslubiy bolalar bilan ishlashga ilg'or ishchilar) hamda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib boriladi.

Amaliyot rahbarlaridan maktab va korxonadan rahbarlari amaliyotchilari uchun nazariy mashg'ulotlarni (mehnat xavfsizligi qoidalari, umumiy axborotlar, korxonaning ishlab chiqarish rejalari to'g'risida) olib borsalar, amaliy va ishlab chiqarish mashg'ulotlarini esa murabbiylar va ustalar bajaradilar. Amaliyot rahbarlarining majburiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularning faoliyati juda xilma-xil va kasbiy mahorat tayyorgarligi ko'p qirrali bo'lishi zarurdir. Rahbarlar pedagogik, ma'muriy, uslubiy, psixologik, texnikaviy-texnologik, moliyaviy-ho'jalik, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari va huquqiy, iqtisodiy, aholi o'sishi bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni bilishlari, amaliy, maxsus, umummehnat ko'nikma va malakalariga ega bo'lmoqlari lozim.

Amaliyotga rahbarlik daromadli korxonada ishlab chiqarish, unumli mehnat sharoitida, xalq xo'jalik rejalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh, bozorbop mahsulotlar yetishtirish, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini amaliyotga qo'llash sharoitida olib boriladi.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning qo'yidagi qator didaktik afzalliklari mavjud:

- a) Shaklan va mazmunan xilma-xil faoliyat turlarini qamrab oladi;
- b) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqotlarida deyarli to'liq mustaqilliklarini ta'minlaydi;

v) Vaqt taqsimlanishida o'quv-dars tizimi kabi ma'lum majburiy qolip asosida emas, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishlari, ko'nikmalarni shakllantirishlari va malakalarni rivojlantirilishiga qarab ixtiyoriy belgilanishini ta'minlaydi;

g) o'quv reja va dasturida ko'rsatilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik maqsadlarining nisbatan to'liq, atroflicha amalga oshirilishiga erishiladi;

d) o'quvchilar o'zlarining ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlarini to'liq ishga sola oladilar, o'qituvchi esa yakka hukmronlikdan maslahatchilik vazifasiga o'tadi;

ye) o'quvchilar, o'zlari mehnati natijasini o'zlari ko'radilar, kelgusida egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarlarini mashaqqati, oson, qiyinchiliklarini, qulayliklarini, bevosita ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'radilar;

yo) Xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlarining xom ashyo, jihozlar bilan ta'minlanishida maxalliy, xududiy, mintaqaviy imkoniyatlar juda muldir.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligidan tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish uchun o'qituvchilar, xalq ta'limi tashkilotchilari, murabbiy va ustalarni tayyorlaydigan o'quv yurtlari reja va dasturlariga ham tegishli o'zgarishlar, tuldirlashlar kiritilishi, milliy ma'naviy, zamonaviy tomondan takomillashtirish zarur.

O'quv-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ularning samaradorligini oshirish uchun oila, ta'lim muassasasi, korxonalar va maxalla-jamoatchilikning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va mustahkamlash zarur bo'ladi.

Mehnat ta'limi va hunarmandchilikdan tashkil etiladigan didaktik imkoniyatlarni sarflab bo'lgan an'anaviy shakllardan voz kechish va yangiliklarni zamonaviy ruhda qayta ishlab, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiriq etish lozim.

2.3. O'quvchilar mehnat ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish darajasini aniqlash mezonlari

O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quv faoliyatining mehnat ta'limida unumli mehnatini tashkil etishda pedagogik nazoratning zamonaviy samarador ko'rinishlaridan foydalanishga harakat qilinadi.

Pedagogik nazoratning maqsadi – o'quvchilarning ta'lim olishiga va tarbiyalanishiga ilmiy, davlat, pedagogik-psixologik uslubiy talablarning tashkil etilish darajasini aniqlashning mazmunini yoritishdir. Pedagogik nazoratning maqsadidan uning vazifalaridan kelib chiqadi:

1. O'quvchilar xalq hunarmandchiligi, xalq xo'jaligining turli sohalarini boshqari va tashkil etish texnika va texnologiya, ishlab chiqarish bo'yicha nazariy bilimlarga egalik darajasini aniqlash;

2. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha amaliy yumularini bajara olish malakasi, qo'l mehnati asboblari, mexanizasiyalashtirilgan vositalardan foydalana olish malakasining rivojlanish darajasini aniqlash;

3. Kasbiy mahorat va maxsus qo'nikmalarning shakllanish darajasini aniqlash, turli xil texnika vositalarini boshqara olish va hunarmandchilikning turli sohalarini bo'yicha kasblar (kosib, ganchkor, naqqosh, temirchi, tikuvchi, oshpaz va boshq.) ko'nikmalarni egallash darajasini aniqlash;

4. Turli xil texnikaviy-texnologik, texkor, tarqatma va boshq. Materiallardan foydalanish, uslubiy, pedagogik, psixologik, ilmiy, ommabop, davriy, matbuot, radio, televideniye materiallaridan foydalana olish malakasining shakllanganlik darajasini aniqlash.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha pedagogik nazoratni tashkil etishning qo'yidagi tamoyillari mavjud: rejalilik, tizimiylik, ma'lum maqsadga yo'naltirilganlik, ko'p qirrali haqqoniylik, oshkoralik, hayotiylik va boshq. Ushbu tamoyillardan pedagogik nazorat o'quv tarbiyaviy jarayonning barcho sohalarini qamrab olishi ko'rinadi: maktabdagi o'quv-dars tizimi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tizimi, o'quvchilar unumli mehnat jarayonida qatnashishi, jamoat topshiriqlarini bajarishi, o'qituvchi va tarbiyachilarning, o'z-o'zini boshqarishning, jamoatchilikning ta'siri, oilaning roli, o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, turli xil bilim,

ko'nikmalarning shakllanish jarayoni, turli xil xujjatlarning yuritilishi va boshqalarni qamrab oladi.

Pedagogik nazoratning maxsuldorligi, uni qanchalik bo'bro', salohiyatli shaxslar xolisona bajarishiga ham bog'liqdir. Nazoratni maktab direktori va u belgilagan kishilar: direktor o'rinbosarlari, o'qituvchilar, murabbiylar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, yoshlar uyushmalari, pedagogik-psixologik qobiliyatga ega ota-onalar, korxonalar rahbarlari, muxandis-o'qituvchilar, muxandis-mutaxassis xojimlar xalq hunarmandchiligi ustalari va boshqalar olib boradilar.

Pedagogik nazorat qo'yidagi ko'rinishlarda olib borish mumkin: 1. Yakka tartibda. 2. Yalpi sinf bo'yicha, maktab, tuman, viloyat, umumdavlat miqyosida.

Mehnat ta'limida, xususan, xalq hunarmandchiligida pedagogik nazoratning yakka tartibdagi ko'pgina shakllari ta'limiy-tarbiyaviy (didaktik) natijalar beradi. Chunki, xalq hunarmandchiligida mehnatning mazmuni, asosan, qo'l mehnatiga, maxsus va kasbiy yumushlarni yakka tartibda bajarishga asoslangan. Pedagogik nazoratning guruhli va yalpi shakllari keng ko'lamda, davlat miqyosida, yirik ijtimoiy-ilmiy tadqiqotlarni olib borishda bajariladi. Xalq hunarmandchiligida tashkil etiladigan pedagogik nazorat qo'yidagi qismlardan tuzilgan: 1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni kuzatish va tanishish; 2. Shakllangan va rivojlantirilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalarini qayd qilish, hisobga olish; 3. Xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalarni tekshirish va nazorat qilish. 4. Olingan bilim shakllangan ko'nikma va malakalarni mehnat natijalariga tayangan holda baholash va xulosalash:

1. Kuzatish – xalq hunarmandchiligi bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini kasbiy va mehnat ko'nikma, malakalarining shakllanish jarayoni bilan kuzatuvchilarning bevosita yoki bilvosita tanishishidir. Kuzatuvchilar sifatida o'qituvchilar, tarbiyachilar, rahbarlar va murabbiylar hamda ilmiy tadqiqotchilar qatnashishi mumkin. Kuzatish bevosita, bilvosita, tizimli, uzluksiz va uzlukli, tabiiy va sun'iy, ilmiy tadqiqot maqsadlarida o'tkazilishi mumkin va o'quv-tarbiyaviy jarayoni bilan tanishishning asosiy uslublaridan bo'lib, olingan, olinayotgan bilim, shakllanayotgan, shakllangan ko'nikma va malakalarni hisobga olish o'quv dargohlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni qayd qilib borishning asosiy shakli bo'lib xizmat qilmoqda.

2. O'quvchilarning nazariy bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirish darajasini tekshirish va bu jarayonni nazorat qilish xalq hunarmandchiligi bo'yicha turli xil mehnat va ishlab chiqarish masalalarini yechish, hisoblash, o'quv kursining biror qismi yoki butunlay o'rgatilishi ustida ish olib boriladi.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni nazorat qilish va tekshirish qo'yidagi ko'rinishlarda olib boriladi: 1. Og'zaki. 2. Yozma. 3. Amaliy.

Og'zaki tekshirish - o'quvchilar xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi, mazmuni, hozirgi zamondagi ahvoli to'g'risidagi nazariy bilimlarning darajasi, mustahkamligi, dunyoqarashining kengligi darajasini tasavvur etishga imkon beradi. Og'zaki tekshirish va nazoratning qo'yidagi ko'rinishlarini biz ilmiy tadqiqotimizda qo'lladik: so'rovlar, suhbat, intervyu.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va tekshirishning qo'yidagi *yozma uslublari* mavjud; testlar tuzish va o'tkazish, anketalar tuzish va o'tkazish, yozma nazorat ishlari, yozma ishlar, insholar, texnologik kartalar, chizmalar, jadvallar tuzish va boshqalar.

Mehnat ta'limida va xalq hunarmandchiligida bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning *amaliy uslublari* yetakchi o'rin tutadi va hisoblanadi.

Pedagogik nazoratning yetakchi hisoblangan amaliy, ishlab chiqarish uslublari qo'yidagilardir:

1. Mehnat yumush (operasiya)lari va uslublarini bajarishning to'g'riligi; 2. Ish o'rnini tashkil etish; 3. Xavfsizlik qoidalariga rioya etish; 4. Buyumlarni, buyurtmalarni yasashning sifatliligi va ijodiyliigi; 5. Detallarga ishlov berish aniqligi; 6. Vaqt me'yoriga qo'yilgan talablar; 7. Sanitariya-gigiyena qoidalarining bajarilishi; 8. Mehnat qonunchiligi talab va miqdor (norma)larining saqlanishi.

Xalq hunarmandchiligida va uning turli sohalarida detallar (buyum qismlari)ga ishlov berishning aniqligiga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu tadqiqotimizda, xalq hunarmandchiligida uchradigan shakl va naqshlarning aniq geometrik o'lchamda emasligini turli xil egri-burchaklarga, ijodiy, milliy xarakterga ekaligini aniqladik.

Xalq hunarmandchiligida uchraydigan shakl va naqshlarning aniq burchak geometrik o'lchamga ega emasligi, ijodiy va milliy xarakterdaligi detallar o'lchamiga,

tayyorlanish sifatiga, aniq davlat talablari, shablonlari va standarti qo'yilmasligini olib keladi.

Buyumlar sifati va o'lchamlari aniqligiga asosiy o'lchov mezonini bo'lib, mohir, yuqori malakali xalq ustalarining tayyorlagan buyumlari, tutgan yo'llari, ish uslublari xizmat qiladi. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar, tugaraklar rahbarlari, shu yo'nalishdagi mehnat faoliyatining amaliy va ishlab chiqarish, qo'l mehnati mazmunida ekanligini nazarda tutib ta'lim muassasasi uslubiy kengashi bilan kelishilgan holda talablarni o'zlari belgilashlari lozim.

Detallarga ishlov berish aniqligi belgilangan talablarni tuzishda ishlab chiqarish topshiriqlarining yakka xarakterdagi, o'quvchilarning yosh, aqliy, psixofiziologik xususiyatlariga mos kelishlarini e'tiborga olmoqlari lozim. Masalan, 5-7-sinf (12-14 yoshdi) o'quvchilar uchun xalq hunarmandchiligi bo'yicha detallarga ishlov berishning aniqligi talablarini, o'lchov mezonlarini qo'yidagicha belgilash mumkin:

1. Tekis yuzalarga ishlov berishda soddaroq shakllarni chizish, o'lchash, belgilashlarni va yasashlarni bajarish: ganch, naqqoshlik, yog'och, metall uymakorligi, kashtachilik sohalarida;

2. Yuqorida kasbiy mahorat bilan tayyorlangan, tayyor buyumlarga qarab, chizmalarni bajarish. Masalan, kulolchilikda ilgari tayyorlangan kuza, lagan, tovoq, kosa, kosa va piyolalarga taqqoslash, uyinchoqsozlikda tayyor o'yinchoqlarga qarab taqqoslash;

3. O'lchamlarning aniqligi + 0,5 mm gacha siljishigacha erishish;

4. O'lchamlar aniqligiga xom ashyoning kattiqligining ta'sir etmasligi, masalan yog'och uymakorligida-yong'oq va terakning qattiqligini taqqoslash, tol yog'ochining mevali daraxt bilan, tut daraxtining yog'ochini qayin va qarag'ay bilan taqqoslash va boshq.

5. Belgilash va ishlov berishda asosiy chiziq va o'lchamlarning chetki chegara chiziqlarining saqlanib qolishi. Bunda o'quvchi chiziqlar turlarini yaxshi bilishi, chizmakashlik savodxonligiga ega bo'lishi (yo'g'on, to'g'ri, ingichka, uzuq-uzuq, chiziq, nuqta chiziq, shtrix, tulqinsimon va boshq.).

Metall va yog'och materiallarga ishlov berishda qo'yidagi aniqlik sinflariga rioya qilinadi:

5-6-sinflarga metallar +- 0,3 mm dan +- 0,4 mm gacha

yog'ochlar +- 0,5 mm dan +- 0,8 mm gacha

7-8 sinflarga metallar +-0,1 mm dan +- 0,2 mm gacha

yog'ochlar +- 0,2 mm dan +- 0,3 mm gacha

9-sinflarda +- 0,1 mm

Buyumlarga, ularning qismlariga ishlov berishning aniqligiga rioya qilish o'quvchilarda o'lchov-nazorat ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga yordam beradi. Mustahkam shakllangan o'lchov-nazorat ko'nikma va malakalarini o'quvchilar qo'yidagi yumushlarni bajarishga layoqatini oshiradi:

- o'lchov-nazorat asboblari to'g'ri ushlab va foydalanish;

- asboblarni sozlash va doim tayyor holda tutish;

- xalq hunarmandchiligi bo'yicha olingan bilimlarning amaliyotga qo'llanilishining maxsuldorlik miqdorini oshirish;

- ijodkorlik qobiliyati;

- unumli mehnatni tashkil eta olish;

Xalq hunarmandchiligi va mehnat ta'limini tashkil etishda vaqt o'lchami miqdori asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Xalq hunarmandchiligida vaqtni normalashning mazmuni shundaki, bir yoki bir necha mehnat yumushlarini belgilangan muddat davomida bajarib ulgurishdir.

O'quvchilar vaqt o'lchamini belgilashdan oldin, mehnat va maxsus yumushlarni bajarish tezligi hisobiga olinadi. O'quvchilarga vaqt miqdorini belgilash detallarning tayyorlanish sifatiga e'tibor bermaslik asosidagina yuzaga kelishi mumkin.

Mehnatni tayyorlash ishlab chiqarishning ijodiylik mazmunini amaliyotga qullashning ijodkorlik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Mehnat va vaqtni me'yorlash o'quvchilarda ishlab chiqarish jarayonining maxsuldorligini oshirishga, murakkab bo'lmagan mehnat qurollari, moslamalarni yasash va xalq hunarmandchiligi sohasida qo'llab olib borish. Masalan, gilamchilik sohasida ipni yigirish jarayonida oddiy yog'och urchuk o'rniga elektrodvigatelli elektr urchuk taklif etilganda va bu mexanizasiya vositasidan foydalanilganda, mehnat unumdorligi odatdagidan 4 va 5 barobar oshadi.

Mehnat me'yorini belgilashda mehnat faoliyatini tashkil etilayotgan o'quvchilarning dam olishini va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchi organizmining psixofiziologik xususiyatlari, jismoniy, ruxiy rivojlanishi

uzluksiz, uzoq davom etadigan mehnat yuklamasiga aks ta'sir ko'rsatish, tez charchashi, mehnat jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Me'yorlashda kunlik ish tartibini tashkil etuvchi mas'ul xodim, o'quv, mehnat qilish, dam olish jarayonlarining navbatlab kelishishiga e'tibor bermog'i lozim.

Mehnat yumushlari va usullarini bajarishning to'g'riligi.

O'quvchilarning mehnat faoliyati, maxsus, kasbiy, umummehnat malaka va ko'nikmalari, yangi uslublarni amaliyotga, hayotga qo'llashning natijasidir.

Mehnat yumushlari mehnat uslublaridan va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan turldi harakatlar yig'indisini tashkil topadi. Har bir uslub ko'p yillik hayotiy, kasbiy harakatlarni mujassamlashtirish natijasida, turli maqsadli harakatlarni ko'p marotaba takrorlash natijasida yuzaga keladi.

Turli xil asboblarni ushlashni, xarakatlantirishni, foydalanishni avvalo, ko'rsatish, keyinchalik namoyish etilgan uslublarni o'quvchi shogirdlarning to'g'ri uzlashtirib olishlari va pirovard natijada, ularni qat'iy, og'ishmay bajarishlari ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning asosiy garovlaridan hisoblanadi. O'quvchilar asboblarni bilan mehnat yumushlarini bajarishi rivojlantiriladi, malaka va ko'nikmalarga aylantirib boriladi.

Xalq hunarmandchiligida mehnat yumushlarining to'g'ri bajarilishi qo'yidagi xollarda namoyon bo'ladi. Masalan, ganchkorlik bo'yicha: yasalayotgan shaklning tasvirini va chizma o'lchamini to'g'ri chizib, belgilab olish. Ganch qorishmasi yopishtirilayotgan tagzaminning yuzasini to'g'ri tayyorlash;

Naqshning loyihasini aniq va to'g'ri tayyorlab olish; Ganch qorishmasini tayyorlash, uni asosga yopishtirish va kesish asboblarini to'g'ri ushlab, unumli foydalanish; Naqsh va shakllarni kesishda tejamkorlikka rioya qilish, to'g'ri mehnat harakatlarini bajarish; Shakllarni, naqshlarni pardoqlashda nozik harakatlarni bajara olish, jilvirlash asboblarini, materiallarni to'g'ri ishlatish; xalq hunarmandchiligida mehnat faoliyati xavfsizlik qoidalariga rioya qilish amaliy va ishlab chiqarish faoliyatida hunarmandlar sog'ligini, ish qobiliyatini saqlash va mehnat asboblarining foydalanish umrini uzaytirishning asosiy garovlaridan hisoblanadi. Xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish, mehnat unumdorligini oshirishdan tashqari, turli xil jarohatlanishlarning kasbiy kasalliklarning oldini olishga sabab bo'ladi.

Hozirgi vaqtda amaliy ishlab chiqarish mashg'ulotlarini tashkil etishda xavfsizlik qoidalari va mehnat qonunchiligining shakllari qo'llanilmoqda:

1. Elektr va mexanizasiyalashtirilgan asbob-uskunalar bilan ishlash qoidalari – elektr xavfsizligi;

2. Mexanizasiyalashtirilgan mehnat vositalariga qarovlar o'tkazish, ta'mirlash va tuzatish – texnika xavfsizligi;

3. Ish o'rinlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, omborlarida, sex va uchastkalarida yong'in chiqish xavfining oldini olish choralari – yong'in xavfsizligi;

4. Oqar suv xavzalaridan, ichimlik suvdan va oddiy suvdan kesish asboblari sovuqchilik sifatida foydalanish, suv o'tkazish kanallari va qurilmalaridan foydalanish – suv xavfsizligi qoidalari;

5. Tabiiy gazdan, siqilgan va suyultirilgan gazdan foydalanish, gaz yoqilg'ilarini ishlatish – gaz xavfsizligi;

6. Ish, dam olish, o'qish, ovqatlanish joylarini doimo toza, ozoda saqlash, zaruriy yorug'lik, toza havo, temperaturaning mehnat unumdorligiga erishishda to'g'ri tashkil etilishi-sanitariya-gigiyena qoidalari;

7. Mehnat va vaqtni to'g'ri taqsimlash yoki me'yorlash, ishchi va hunarmandlarni taqdirlash, sog'ligini saqlash, dam olishi, davolanishi va moddiy, ma'naviy ta'minlanishi, nafaqa bilan ta'minlash – mehnat qonunchiligi;

8. Bolalar va ayollar mehnati qonunchiligi.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilar mehnatini tashkil etishda yangi texnikalar, texnologik jarayon va mehnat yumushlari bo'yicha nazariy bilim, amaliy ishlab chiqarish ko'nikma va malakalarini hisobga olish, nazorat qilish, tekshirish va baholashda qo'yidagilarni qayd qilish zarur bo'ladi:

- hunarmandchilik ishlab chiqarishini tashkil etish, bo'yicha nazariy bilimlarni, texnologik, tezkor, ishlab chiqarish xaritalari, turli xujjatlarini yuritish bo'yicha bilimlarni turli xujjatlar bilan ishlay olish, zarur vaqtda, yangilarini mustaqil holda yaratish;

- asosiy texnologik jarayon, ishlab chiqarish yumushlari izchilligi, ketma-ketligi to'g'risidagi bilimlarni;

- asosiy mehnat qurollari, asboblari, moslamalari bilan ishlash to'g'risidagi bilimlarni;

- xavfsizlik qoidalarini elektr, gaz, suv, yong'in, texnika xavfsizligi, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiyena qoidalari;

- ta'lim va ishlab chiqarishning texnikaviy vositalari yozma va chizma manbalarini texnik xujjatlar, tavsifnomalar va boshq tug'risidagi bilimlar va malakalarni;

- turli xil ishlab chiqarish va o'quv topshiriqlarini bajarishdagi mustaqil faoliyat (turli xil xom ashyolarga zaruriy extiyojni xisoblay olish; yog'ochga, ganchga, gazlamaga, oziq-ovqat maxsulotlariga va boshq.) va ularga ishlov berishni hisoblay olish, yog'och, ganch, metallarni uyish, chuqurligi va kengligini xisoblash, rezbalar chuqurligini, bichish-tikish ishlarida tugunlar, birlashtirishlar mustahkamligi va boshq.;

- xalq hunarmandchiligi bo'yicha turli-xil buyumlar va ularning qismlarini tayyorlash sifatini nazorat qilish, dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni tashkil etish.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha amaliy, ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishning sifatini tekshirishda baxolar, ulchov mezonini belgilashda quyidagilarga rioya qilish zarur bo'ladi:

- ish o'rnini eng maxsuldor ilmiy, zamonaviy talablar darajasida tashkil etishda mustaqillik va rejalilik;

- rejalash, kesish, pardoqlash asboblarini (m: ganchkorlik, metalla va yog'och uymakorligi) charxlash, tuzatish, tekshirish, sozlash, ishlashga tayyorlash;

- mehnat jarayonida moxir xalq ustalari singari eng maxsuldor, qulay mehnat uslublarini tanlash;

- tanlangan qulay, maxsuldor, ishlov berish uslublarini asoslay olish materiallarga ishlov berish va pardoqlash usullarini tanlash (m:sandiqsozlikda, mebellar tayyorlashda va boshq.) qulay, mahsuldor uslub va harakatlar tanlash;

- elektr tokiga, gaz va boshqa yoqilg'i, moylash materiallariga, binolarga, tugaydigan va tugamaydigan zaxiralarga, asbob-uskuna va jihozlarga tejimli munosabatda bo'lish;

- davlat, xususiy, qo'shma, kichik, shaxsiy korxonalarda, kooperativlarda xalq hunarmandchiligi bo'yicha unumli mehnat jarayonida o'z-o'zini nazorat va ichki nazoratni rejali holda yo'lga qo'yish;

- belgilangan vaqt mobaynida olingan mehnat topshiriqlarini bajarish (vaqt va mehnat me'yorlarini belgilash) va boshq.

O'quvchilar nazariy bilim, amaliy ko'nikma va ishlab chiqarish malakalarini tekshirishda, kuzatish, hisobga olish, nazorat qilish va baholashda test-nazorat uslubiyati hozirgi zamonning eng ilg'or va keng tarqalgan shakllaridan hisoblanadi.

Test-nazorat tizimin qamrab olish va tekshirish obyektlarining ko'p qirraliligi. Ko'plab faoliyat turlarini tekshirish, etalon-javobning mavjudligi bilan an'anaviy nazorat tizimlaridan farq qiladi. Etalon to'g'ri javobning mavjudligi boshqa javoblar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda ushbu tizim qulayliklari qo'yidagicha bo'lib, qamrov ko'lamlarini keltirib o'tamiz:

1. Bilimlarni o'zlashtirish darajasini;
2. Malakalarning shakllanish darajasini;
3. Ko'nikmalarning takomillanish darajasini;
4. Mehnat jarayonining tashkil etish darajasini;
5. Mehnat yumushlarining bajarilish darajasi aniqligi;
6. Hunarmandning mehnat uslublari bajarilish darajasini;
7. Mehnat harakatlarining bajarilish sofligini;
8. Tayyorlangan buyumlar sifatini va boshq.

O'quvchi-hunarmandlarning mehnat faoliyatini yuqoridagi 8 xil ko'rinishida tekshirishga harakat qilinadi:

1. O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish. Mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida turli faktlarni, sanalarni, ism, voqeya va hodisalarni qayd qilish, avlodlarimiz tomonidan bajarilgan xayot tajribalarini o'rganish. Har bir hunarning tarixi, tarqalishi, ahamiyati, moxir ustalarini bilish, shu soha bo'yicha qilingan ishlar bilan tanishish, turli adabiyotlar bilan, radio, televideniye, o'qituvchining ma'ruza va hikoyalari, vaqtli matbuot va boshqalar ma'lum soha bo'yicha bilim manbalari hisoblanadi.

2. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha malakalarni shakllantirish o'quvchilarning mehnat harakatlarini uyushgan maqsadga yo'naltirilgan holda bajarishga qaratilgan mashq va uslublarining yig'indisi hunarmand faoliyatida aks etishidir.

3. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'nikmalar shakllanishi o'zlashtirilgan rivojlantirib maxsus, kasbiy harakatlar avtomatlashgan holda o'z-o'zidan bajarilish

darajasigacha yetkazilishidir. Malaka sun'iy darajada shakllantirib, ko'nikma esa tabiiy-kasbiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi.

4. Mehnat jarayoni – ishchi hunarmandning ma'lum yumushni bajarish maqsadida qilinadigan, ma'lum qonuniyatlar asosida mazkur kabga xos bo'lgan umumiy va maxsus ishchil harakatlarning ta'sirlari yig'indisidir.

5. Mehnat usullari – ma'lum texnologik jarayonni amalga oshirish maqsadida ishchi-hunarmandning tugal harakatlari yig'indisidir.

6. Ish harakatlari – ishchi-hunarmandning qo'l va oyoqlari (yoki ba'zi predmetlarining) ning mehnat jarayonida ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holdagi qimirlash, harakatlanishidir. Masalan, ba'zi o'quv kurslari, darslaridagi (tarix, geografiya, tillar va boshq.) o'zlashtirishdagi mehnat harakatlari bilan xalq hunarmandchiligi, mehnat ta'limi mashg'ulotlaridagi mehnat harakatlarining o'ziga xosligi albatta, ko'nikma va malakalarga boyligi bilan bir biridan farq qiladi.

Albatta, yuqorida ko'rsatilgan 6 xil o'lchov mezoni (bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma, mehnat harakatlari va boshq.)ning aynan, mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligiga xosligi bu sohalar bo'yicha pedagogik nazoratni o'rnatishda o'ziga xoslikni talab etadi.

Pedagogik nazoratni tashkil etishda testlar uslubiyatidan foydalanish inson mehnat, kasbiy faoliyatining ko'pgina qirralarini tekshirishga kuzatish va baholashga yordam beradi.

Testlar uslubiyatidan foydalanish qo'yidagi talablarning bajarilishiga yordam beradi:

1. O'quvchilar o'zlashtirgan axborotlarni xajmi va mazmuniga nazorat uslublarining mos kelishi (mazmuniy moslik);
2. O'quvchilar bilimlarini o'zlashtirish darajasi bilan nazorat uslubining mos kelishi;
3. Topshiriqlarning oddiyligi va soddaligi;
4. Topshiriqlarning ma'lum bir tomonga, maqsadga yo'naltirilganligi;
5. Testlarning ishonchliligi;
6. Testlarning tashxisliligi, oldindan ko'ra olishi;
7. Testlarni tekshirish mumkinligi, tekshiriluvchanligi;

1. Mazmuniy moslik – o'quvchilarning testlash o'tkazilgunga qadar o'zlashtirgan axborotlarining hajmi va mazmuniga, tekshirish uslub va vositalarining aniq mos

kelishini ta'minlaydi. Masalan, xalq hunarmandchiligining ma'lum sohasi bo'yicha o'tkazilayotgan testlar shu sohadan o'rganilgan, o'zlashtirilgan qisminigina ham nazorat qilish kuzda tutiladi.

2. Vazifali moslik – tekshirilayotgan faoliyat turining rivojlanganlik darajasi bilan bajarilayotgan topshiriqning, vazifaning talablari mos kelishi hunarmand-ishchilarning mehnat faoliyatini baholash muzim tomonlaridan hisoblanadi. Masalan, o'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha olgan nazariy bilimlari, amaliy ishlab chiqarish shakllanishi darajasi bilan testlar tuzilishining murakkablik darajasi bilan bir-biriga mos tushishi, nazoratning haqqoniylikiga olib keladi.

3. Topshiriqlarning soddaligi, oddiyligi – birgina savol yoki topshiriq bilan o'quvchilar testlash o'tkazilgunga qadar o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining darajasini aniqlanadi.

4. Testlar topshiriqlarining bir tomonlilik yoki maqsadga yo'naltirilganligi barcha o'quvchilarga bir xilda tarqatilgan testlarni tushuna olishlari, testlar talabiga ko'ra yumushlarni bir xil darajada bajara olishlariga aytiladi.

5. Testlarning ishonchligi qo'yidagi ikki xil sharoitda ta'minlanishi mumkin: 1. Nazorat qilinayotgan o'quv elementining ilmiy ishlanganlik darajasi (manbalarda qayd qilinish darajasi); 2. Axborotlarni turli manbalardan, darsliklardan, o'quv qo'llanmalari, tavsiyanomalar va boshq. O'zlashtirish darajasi.

6. Testlar tuzilishidagi oldindan ko'ra bilish, tashxislik ta'minlansa, test topshiriqlaridagi yoki etalonda ko'rsatilgan mehnat yumushlarini, mehnat ko'nikma va malakalarini yaxshi namunali bajarib kelgan o'quvchilar o'zlari mustaqil bajarishlariga, sinab ko'rishlariga imkoniyat yaratiladi. Masalan, test topshiriqlarida, yog'och uymakorligida, iskana turlari to'g'risidagi savollar berilsa, ma'lumotlarni aniqlabgina qolmasdan, ba'zi tur iskanalar bilan mehnat yumushlarining xususiyatlari, o'ziga xosligi (uyish chuqurligi, kengligi, naqshlar rang-barangliligi va boshq.) ham suralishi, bajarilishi, sinab ko'rilishi mumkin.

Tuzilgan testlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun shu soha bo'yicha mutaxassislar, fan o'qituvchilari mazkur ishlab chiqarish sohalari bo'yicha ilg'or mutaxassislar, moxir ustalar taklif etiladi.

Tekshirilayotgan fanning o'quv dasturi bilan tuzilgan testlarni taqqoslash davrida o'quv axborotlarining manbalari, topshiriqlari, rejalari, yumushlarini bir-biri bilan hamda

topshiriqlar mazmuni, shakli, etalonlari bilan ularni taqqoslash-mazmuniy va funksional moslikka to'g'ri kelishiga e'tibor qilmoq lozim bo'ladi.

Testlarni shajaralarga ajratishda V.Bespalko tajribalaridan foydalangan holda, inson faoliyatining shakllanish darajasiga muvofiq o'zlashtirish darajasiga mos holda 4-bosqichga guruhladik:

1-bosqich. Ilgari egallangan bilimlarni esga tushirish, xotirlash darajalarini tekshirish testlari.

Ushbu guruh testlari qo'yidagi qismlarga ajratiladi: (- chizma). 1. Bilish testlari; 2. Farqlash testlari; 3. Taqqoslash testlari; 4. Soxta testlar.

1. *Bilish testlari* - tuzish davrida topshiriqlarga javob variantlarida "xa", "yo'q", "bo'ladi", "taaluqli", "taaluqli emas" kabi to'g'ri va aks ma'noli so'zlar qo'llaniladi. O'quvchilar to'g'ri javob-etalonlarni topishda bu javobdan birini tanlashlari lozim. Topshiriqlarda, tavsiflarda o'quvchilarga ilgari tanish bilish obyektlari, bilimlar majmui qo'llaniladi. Masalan, topshiriq; ganchkorlik xalq hunarmandchiligi sohasi hisoblanadimi? Javob: "xa", "yo'q"; etalon - "xa".

2. *Farqlash testlari* - tuzishda o'quvchilarga berilgan bir yoki bir necha topshiriqlarning ichida bir yoki bir necha to'g'ri javobni topish lozim bo'ladi.

3. *Taqqoslash testlari* - tuzishda ilgari o'rganilgan tanish bilimlar, obyektlar, jarayon va xodisalarning bir nechtasi keltirilib o'tilib, etalon to'g'ri javobni topishda yuqoridagi bilish obyektlari taqqoslanadi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

4. *Soxta testlarni* - tuzishda topshiriqlar mazmuni odatdagidek tuzilib, o'quv dasturining mazmuniga to'g'ri kelgani bilan javoblar yoki etalon bir necha ko'rinishda yoki raqamlar (kodlar) yordamida beriladi. O'quvchilar topshiriqlar yechimini, to'g'ri javobni topishda kodlar raqamini ko'rsatish lozim bo'ladi.

5. *Axborotlarni ishlab chiqish yoki xotirlash testlarida* o'quvchilar ilgari o'rgangan bilim va mavzularini xotirleydilar yoki yangi axborotlarni o'zlari ishlab chiqadilar.

6. *O'rniga qo'yish testlari* - topshiriq tuzishda turli xil tekst, jadval, formula, chizma, belgi, loyixa va modellarni tuzishdagi yetishmagan zaruriy qismlarning o'rniga qo'yish, topish zarur bo'ladi.

7. *Tuzish testlari* - o'quvchilarda ma'lum jarayon, loyixa, chizmalarni o'zlari chizishlari lozim bo'ladi va javoblarni o'zlari topadilar.

8. *Namunaviy masalalarni yechish testlarini* - tuzishda o'quvchilardan ma'lum masalalarni yechish, jarayonlarini va tuzilmalarni loyixalash, mehnat yumushlarini bajarish ketma-ketligiga rioya qilish mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish qonuniyatlari, qoidalari izchilligiga rioya qilgan holda bajarishdan kelib chiqadi.

Axborotlarni o'zlashtirish, xotirlash testlari alohida mavzular, bo'limlar, o'quv kurslarini o'tilgandan keyin egallangan bilimlar saviyasini aniqlash uchun qo'llaniladi. U qo'yidagi bosqichlarda izchilikda tuziladi:

1. O'quv dasturining tekshirilayotgan qismina diqqat bilan o'rganish, o'quv elementlariga ajratish, o'quv fanining mavzular chiziqli tizimini yaratish; 2. Testlar tuzilayotgan o'quv elementlarini, tekshirilish obyektlarini tanlash; 3. Testlarni dastlabki ko'rinishida tayyorlab olish; 4. Testlarni tahlil, taxrir qilish va ekspertlar tekshiruvdan o'tkazish; 5. Sinov tekshiruvdan o'tkazish uchun testlarni zarur miqdorda, kam nusxada ko'paytirish kupaytirish; 6. Testlarni sinov tekshiruvdan o'tkazish, dastlabki natijalarni tahlil qilish va topshiriq va etalonlarni yakuniy tekshiruvdan o'tkazish; 7. O'quvchilarni yalpi tekshiruvdan o'tkazish uchun zaruriy sonda, maqsadda tayyorlab olish, ko'p nusxada ko'paytirish.

2. Testlarni tuzishda muhim bosqichlardan biri pedagogik nazorat obyektlarini tanlash hisoblanadi. Har bir ajratilgan, tanlangan o'quv elementlari xususiyati inson faoliyatining rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak.

Avtomatlashtirilgan, apparatlashtirilgan nazoratga ko'pgina testlar mos keladi. Tekshirilayotgan obyektlar ustidan o'tkazilgan apparatlashgan nazoratning obyektlari 3 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligida bilim va malakalarni o'quvchilar o'zlashtirish faoliyati darajalarini har birini tahlil qilishga o'rganib ko'ramiz. O'zlashtirish darajasini aniqlash test topshiriqlarini ishlab chiqishda juda muhimdir.

1-daraja; - *tanishish darajasi*. Bu o'zlashtirish darajasiga chiqarilgan o'quvchiga turli buyumlar, jarayonlar, obyektlar o'zlari yoki ularning bayoni, tasviri, tavsifi, taqdim qilingandagina u ularni tanishi mumkin. Ushbu maqsadda o'quvchi tanishish bilimlarini egallaydi va u turli xususiyatlarni farqlashni amalga oshira oladi. Bu holda o'quv axborotini chuqur tushunishiga, xotirada mustahkam saqlashga, aqliy va mantiqiy yumushlarni bajarishga bo'lgan talablar ham o'ziga xos darajada bo'ladi. Bunday

darajani aniqlash testlarini tuzishda topshiriqlar, yangi bilimlar bera oladigan qilib tuziladi.

II-daraja; - *eslash (xotirada saqlash)* darajasi. Ushbu bosqichda o'quvchilar ilgari o'rganilgan axborotlar, operasiyalar, yumushlar, faoliyat turlarini takrorlashlari, namunaviy masalalarni yechishlari mumkin. Bunday holda ular nusxa ko'chirish bilimlariga ega bo'ladilar.

Ta'lim jarayonida axborot, yumush va harakatlar qanday ko'rinishida va ketma-ketlikda bayon qilingan bo'lsa, ularni shunday takrorlashga so'zma-so'z eslab, xotirlash, aytib berish deb aytiladi. O'quv axborotlarni so'zma-so'z takrorlab aytib berish bu ularni mohiyatini cho'qur tushunmaslik va ongli ravishda izchilliklarini anglamaslik mevasidir. Ilgari o'zlashtirilgan o'quv axborotini xotirlash va so'zma-so'z aytib berish turli fanlarning asosiy qonuniyatlari ta'rifi, qabul qilingan umumiy belgilar, terminlar va x.k. larni eslashda ko'p uchraydi.

Fanlar asoslari bo'yicha ilgari o'rganilgan bilimlarni so'zma-so'z eslab, aytib berish o'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlashda, nazorat qilishda tez uchrab turadi. Jumladan, sinfda ko'rib chiqilgan masalalarga o'xshash masalalarni yechishda, amaliy mashg'ulotlarda esa, o'zlashtirilgan yumushlarga uxshashlarini mustaqil bajarishda bunday hollarni ko'plab uchratish mumkin.

Ikkinchi daraja nusxa ko'chirish – bilimlarni va faoliyatlarni o'zlashtirish dastlabki tanishish bilimlarga nisbatan yangi o'quv axborotlar bilan ishlashda tamomila boshqacha sur'atda yondashishni, ya'ni axborotlarni nafaqat chuqur tushunishi va xotirada saqlashni, balki uni aniq eslash (puxta takrorlash)ni, masalalar yechishni, ko'plab mashq qilishni talab qiladi. O'quvchi bunday faoliyatda o'quv axborotiga ta'rif berishda uzi tuzgan ko'rinishlarni taklif qila oladi. U o'rgangan o'quv elementlarni tushuntirish uchun o'qituvchi darsda aytmagan, o'quv darsligida bayon qilinmagan, ammo o'zlaricha mustaqil holda o'rgangan misollarni keltirishi mumkin. Bunday rivojlanish darajasiga faqatgina o'quvchilar o'quv axboroti mazmunining mohiyatini ongli ravishda tushunib olish yo'li bilan erishishi mumkin. O'qituvchi o'quv faoliyatini tashkil etishda ongli va chuqur tushunilgan o'quv axboroti oson esda qolishni va u xotirada uzoq saqlanishini esdan chiqarmasligi kerak va shunga erishishi lozim.

Uchinchi daraja – ko'nikma va malakalarning namoyon bo'lishi darajasi. Ushbu darajada o'zlashtirishga chaqqon o'quvchilar mashg'ulotlarda o'rganilgan, ammo

mazmuni va bajarish shartlari yangicha bo'lgan faoliyatlarni ham bajaradi. Bu darajadagi faoliyatga misol qilib noan'anaviy masalalar yechishni detallarni tayyorlash bo'yicha texnologik jarayonning umumiy xususiyatlarini tanishib bo'lgandan so'ng, ushbu tipdagi aniq buyumlar tayyorlash uchun o'quvchilar tomonidan texnologik xotirani tuzishni ko'rsatish mumkin. Mazkur darajadagi o'zlashtirish tekshirishda faoliyatning ikki turini – ko'nikma va malakalarning namoyon bo'lishini farq qilish zarur.

Ko'nikmalarning namoyon bo'lishi – bunda o'quvchi o'z mehnat faoliyatini ketakligini va uni amalga oshirish usullarini ma'lum muddat ichida uylab kurgandan so'ng bajaradi. Agar o'quvchi biror stanokda ishlashga o'rgatish jarayonini ko'z oldimizga keltirsak, stanokni boshqarishni o'rgatish dastlabki vaqtlarida o'quvchi bevosita murabbiy yoki usta –tokarning kuzatish va ishtirokida bajaradi. Stanokni boshqarishda har bir faoliyatni, harakatni o'quvchi uzoq vaqt, bosqichma-bosqich uylab ko'rib, so'ngra bajaradi. Stanok yoki qurilmada ishlashni o'rgangan sari uni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan turli faoliyatlarni bajarish uchun o'quvchi tomonidan sarflanadigan vaqt ham kamayib boraveradi, ammo ish sifati oshaveradi. Ushbu holat faqat stanoklarga ishlashga o'rgatish uchun xos bo'lmasdan balki, mavjud texnikaning asbob, moslama va qurilmalarning barcha turlarini bajarishga o'rgatish jarayoni uchun ham xarakterlidir.

Malakalarning namoyon bo'lishi – mustaqil ishlash darajasigacha ko'tarilgan o'quvchilar odatda turli stanok va mexanizmlarni ishlatish bilan bog'liq barcha harakatlarni yengil qiynalmasdan, bir lahzada bajaradilar. Kasbiy faoliyatning ushbu darajasida o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan har bir mehnat yumushlarini bajarish uchun, uylab ko'iish uchun sarflanadigan vaqtni keskin kamaytirishga erisha oladilar, ya'ni kuzatayotgan kishi stanokda yoki qurilmalarda ishlayotgan o'quvchi guyo uni uylamasdan boshqarayotganday tasavvur qoldiradi.

O'z-o'zidan ravshanki, o'quvchilar ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun o'quv axborotlarini chuqur tushunishlari, esda qoldirishlari birgina o'zi kifoya qilmaydi, albatta. Bu yerda amaliy mashqlarni qayta-qayta bajarish, uzluksiz, doimiy ravishda takrorlash bilan, harakatlarni eng oson va tez bajarish usullarini ketma-ket, izchil egallash jarayonini tashkil eta olish muhimdir.

IV- daraja – *ijodkorlik darajasi*. O'quvchilar ijodkorligi deganda, biz faqatgina xuddi olimlar, muxandislar, ijrochilar singari fan sohasida hali yaratilmagan fan-texnika taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan yangiliklarni yaratishnigina emas, balki barcha

mutaxassislar uchun ma'lum bo'lgan, ammo, ta'lim oluvchilarning aql-zakovatini ishga solib, ular o'zlari uchun noma'lum yangilikni qaytadan yaratishni ham tushunamiz.

O'quvchilar ijodkorligini 4 darajaga ajratiladi: 1. Ularning o'zlari uchun yangilik; 2. Fan sohasi, mutaxassislar uchun yangilik; 3. Umumdavlat miqyosidagi yangilik; 4. Yangi kashfiyot.

O'quvchilar ijodkorlik darajasiga chiqarish uchun bilimlarni ko'proq mustaqil izlashga, egallashga o'rgatish kerak. Bu yerda eng muhimi, har bir o'quvchi o'zida mavjud imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini hosil qilishdir. Ushbu maqsad uchun o'quv jarayoniga maxsus ijodiy topshiriqlarni ko'plab kiritish, o'quvchilargatlmiy-nazariy, tuzuvchilik, ta'mirlash, yangi buyumlar, qurilmalar yasash faoliyatlarni shakllantirib borish lozim.

Ma'lumki o'quvchi yuqorida ko'rsatilgan u yoki bu o'zlashtirish darajasiga faqat o'quv faoliyatida faol ishtirok etishi tufayligina erisha oladi. O'quv faoliyati ham o'z navbatida qo'yidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi: - kelgusi ish (o'qish) yo'nalishini aniqlash, chamalash, o'lchash, mo'ljallash bilan bog'liq bo'lgan maksadga muvofiq o'qish faoliyatining eng samarador qoidalari va usullari tanlanadi (AF – aniqlash faoliyati).

- o'quvchilarning ijodkorlik faoliyati o'zlashtirilgan o'quv axborotlarni mustaqil holda qayta ishlanishdan va bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun turli yumushlarni bajarishdan iborat bo'ladi (ijrochilik faoliyati). Ushbu faoliyat jarayonida o'quvchilar o'zi tomonidan ishlab chiqarilgan faoliyat dasturlarini bajaradilar. Ijrochilik faoliyatini muvaffaqiyatli o'tkazib bo'lgan o'quvchilar egallagan bilim, malakalarni o'quv ish mashg'ulotlarida, amaliy faoliyatida mustaqil qo'llashlari mumkin;

- nazorat faoliyati – o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan aniqlash faoliyati (AF), ijodkorlik faoliyati (IF) larni to'liq, to'g'ri va sifatli bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

- tuzatish, to'g'rilash faoliyati ayrim yumushlarni takomillashtirish uchun umumiy faoliyat yakuni haqidagi yoki uning bosqichlaridan biriga qaytishi, nazorat natijalarini tahlil qilishi bilan bog'langan (TF) – tuzatish faoliyati.

Biz bu yerda muhim bo'lgan bir qoidani alohida ta'kidlab o'tishni lozim deb hisoblaymiz.

O'quv faoliyatining yuqorida taxlil qilingan barcha turlarini bajarmasdan turib o'quv elementlarini o'zlashtirish mumkin emas.

Yuqoridagilarni hisobga olib, umumiy holda o'quv faoliyati tuzilishini ham formula tarzida $F=AF-IF-NF-TF$ ko'rinishida yozish mumkin.

Faoliyat turlarini shartli ravishda kam maxsulli (taqlidiy) va sermaxsul turlariga ajratish mumkin:

I-taqlidiy (kam maxsulli faoliyat). O'quv axborotni xotirada tiklash bilan bog'liq faoliyat jarayonida egallangan dastlabki axborot faqat xotirada qayta tiklanadi, yangi axborot yaratilmaydi. Ushbu faoliyatda o'quvchi o'quv predmeti bo'yicha dastlabki ma'lumotlarga boshqa hech qanday yangi axborotni qo'sha olmaydi. Sermaxsul faoliyatda esa o'quvchilar o'zlarida yangi o'quv axborot, bilimlarni shakllantira oladilar.

Xotirada tiklash bilan bog'liq bo'lgan kam maxsulli – taqlidiy faoliyat bu o'quv elementlarini o'rganish jarayonida egallangan harakat izchilligi qanday bo'lsa, shundayligicha, to'g'ridan-to'g'ri aytib berish demakdir.

Endi bu faoliyat uchun xos bo'lgan misollar keltiramiz:

1. Ilgari o'rganilgan o'quv elementlarining belgi va xususiyatlarini o'quvchi tomondan izohlash;

2. Berilgan formulalar va ma'lum hisoblash chizma va belgilari asosida hisoblash ishlarini bajarish;

3. O'quv darsligidagi ma'lumotlarni ular qanday ko'rinishda va ketma-ketlikda keltirilgan bo'lsa, shunday tartibda bayon qilish va boshqalardir.

Ushbu faoliyat turlarida ilgari egallangan harakat usullarini o'xshash bo'lgan turli vaziyatlarga to'g'ridan-to'g'ri qo'llash orqali ham bajarilishi mumkin. Bu holda andozalar namunalarga tayangan holda bajariladigan faoliyat haqida fikr yuritiladi.

2. Sermaxsul faoliyatda o'quvchi ilgari o'zlashtirgan yumushlarni aynan takrorlash yo'li bilan bajarmasdan, balki, yangi sharoitda turli faoliyat usullarini mujassamlashtirgan holda, qo'llagan holda bajariladi.

Ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayonida uni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ilgari o'zlashtirgan harakatlar izchilligi yangi vaziyatga moslashda yoki yangidan tashkil qilinadi. Shu boisdan ham ta'lim jarayonida sermaxsul yangi faoliyat tufayli ko'pincha yangi axborotlar yuzaga kelishi tushiniladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sermaxsul faoliyatda mutaxassislar uchun ma'lum harakat usullari o'quvchilar tomonidan mukammal bajarilsa, yoki hozirgi kunga qadar ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan usullar bilan uyg'unlashtirilgan holda bajarilganda, o'quvchilarning ijodiy yangi faoliyati yuzaga kelishi haqida tasavvur etishi mumkin.

Ushbu faoliyatning mohiyatini olib beruvchi misollar qilib qo'yidagi faoliyatlarni keltirish mumkin:

- mustaqil tanlab olingan formulalar yoki chizmalar bo'yicha hisoblashlar o'tkazish;
- biror yo'l-yo'riqsiz, mustaqil holda turli loyihalarni yangi qurilmalarni, naqshlarni, kompozitsiyalarni yaratish;
- tashabbuskorlik va ixtirochilik, ishbilarmonlik bilan shug'ullanish va hokazolar.
- hunarmandchilikda yangi sanoat asarlarini yaratish;
- harakatlanuvchi turli modellar, maketlar yaratish va boshq.

Yoshlarning mehnat va kasb ta'limi tizimida to'g'ri yo'lga qo'yilishida albatta, yuqorida ko'rib o'tilgan IV-darajadagi faoliyat turlari, bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarning rivojlanish darajalari, aniq belgilab berilishi juda muhimdir. Chunki, mehnat va kasb tayyorgarligi, hunarmandchilik ta'lim jarayonida ko'proq amaliyotga, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan, ilgari o'quvchi uchratmagan, uning uchun yangilik hisoblangan muammoli holatlar ko'p uchraydi. Albatta, o'quvchilar ana shunday muammoli holatlardan chiqib ketishlari uchun har bir faoliyat darajalari, turlari va o'zlashtirish darajalarini turlicha namoyon qiladilar. Ana shunday turli-tuman faoliyatlar, o'zlashtirish bosqichlari, turlari va darajalarini aniqlashda testlarning imkoniyatlari, boshqa baholash tizimlariga qaraganda qulaydir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda, testlar tizimi ko'p qirrali, didaktik imkoniyatlarga boy, ishonchli vosita - usul sifatida uzunligi namoyon etadi, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

XULOSA

Xalq hunarmandchiligi insonning nisbatan qulayroq va chiroyliroq yashashini ta'minlovchi asosiy faoliyat turlaridan hisoblanib, ongli odam paydo bo'lishi bilan dunyoga keldi va rivojlandi.

Respublikamizda yashaydigan 120 dan ziyod millat va elatlar vakillarining uzoq mehnati o'tmishini, sharqona tafakkurini, madaniyatini ifodalovchi vosita hisoblangan xalq hunarmandchiligini tizimli, mukamallashgan, tartibli, doimiy fan sifatida o'rganish davri yetib keldi. Respublikaning mustaqillikka erishishi, davlat sifatida shakllanish tariximizni, ma'naviyatimizni va milliy merosimiz hisoblangan hunarmandchiligimizni, o'zimiz uchun va boshqalar uchun, o'zimiz o'rganishimizga, talqin qilishimizga imkoniyatlar yaratdi.

Xalq hunarmandchiligining hozirda saqlanib qolgan 150 dan ziyod sohasi bevosita o'rganish va yoshlarga o'rgatish obyekti hisoblansa-da, yo'qolib ketgan, hozirgi davrda nomlari adabiy manbalardagina saqlanib qolgan yana 100 dan ziyod turi esa turli tadqiqotlar, izlanishlar manbai bo'lishi mumkin. Biz o'z tadqiqotimizni xalq hunarmandchiligining mazmuni, tarixi, tuzilishi, xususiyatlari, bajarilish texnologiyasini aniq bir umumta'lim o'quv fani predmeti hisoblangan mehnat ta'limi asosida amaliyotga qo'llanilishining asoslarini ishlab chiqishga qaratdik.

Xalq hunarmandchiligini mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish asosida o'rganish va o'rgatishda qo'yidagi holatlarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

1. Hozirgi davrda hukum surayotgan mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarining an'anaviy tuzilmasi asosida yangi zamon kishisini shakllantirish bo'lmaydi, shuning uchun, ushbu sohaning yangi tizimi loyihasi ishlab chiqildi.

2. Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarining yangi tizimi loyixasida xalq hunarmandchiligi nazariy, ma'naviy, metodologik, tarixiy poydevor sifatida tanlab olindi.

3. Ushbu ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishning didaktik asoslarini yaratishda: a) Ta'lim mazmunini tanlab olish (nimani o'rgatish); b) Shakl va uslublarini, vositalarini aniqlash-o'qituvchi vazifasini belgilash (qanday qilib o'rgatish?); v) O'rganilgan va o'rgatilgan ta'lim mazmunining o'zlashtirish darajasini aniqlash (qanday darajada o'rgatildi?) kabi asosiy tamoyillarga diqqat e'tibor qaratildi.

4. Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarining yangi tizimi mazmuni o'quv-me'yoriy xujjatlar va o'quv-metodik majmualarda o'z aksini topishi lozimligi ko'rsatildi.

5. Ushbu ta'lim tizimini amalga oshirishda o'quv-dars mashg'ulotlari, turli ta'limiy-tarbiyaviy, tashkiliy tadbirlarning o'rni tashkil etilishi yo'llari namunalari ishlab chiqildi va amalda sinab ko'rildi.

6. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish ishlari va xalq hunarmandchiligini amalga oshirishda yetakchilik vazifasini bajaradigan o'qituvchi-murabbiy-ustozlarni amaliy, kasbiy, pedagogik faoliyatga tayyorlashning yaxlit texnologiyasi namunasi yaratildi va uning ba'zi qismlari amalda sinab ko'rildi.

7. Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajasini, mezonlari belgilandi va bu sohada testlar uslubiyati samarali qo'llaniladi, natijalar beradi.

8. Oliy pedagogik ta'lim tizimida maktablarning mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish, xalq hunarmandchiligidan olgan bilimlari asosida bajargan mustaqil, ijodiy, nazariy va amaliy ishlar sifatini aniqlash, baholash uchun fasetlar uslubiyati samarali natijalar beradi.

9. O'quvchi va talabalarning mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish, xalq hunarmandchiligini o'rganishlari jarayonida ularning jinsiy, yosh, individual, ruxiy, aqliy, jismoniy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

10. Ushbu ta'lim sohasi, boshqa fanlardan farqli ravishda, alohida o'quv, moddiy, xom ashyo ta'minotini talab etadi, ushbu ta'minotni maxalliy sharoitlarda ijobiy amalga oshirish uchun mehnat va ishlab chiqarish amaliyotlari dasturi va metodikalari ishlab chiqilsa ijobiy natijalar beradi.

11. Xalq hunarmandchiligi risolalari, o'g'itlari, pand-nasixatlari, hunarmandlar sulolalari aqidalari, qoidalari yirik tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ular bo'lg'usi hunarmandning barkamol shaxs fazilatlariga ega bo'lishlariga yordam beradi.

12. Mehnat ta'limi va hunarmandchilik sohalarini umumta'lim maktablarida muntazam o'rgatib borish, o'quvchilarga faqatgina ma'naviy, ma'rifiy, odob-axloq, aqliy, jismoniy, ekologik,estetik, ruxiy jihatdangina shakllanishiga yordam beribgina qolmasdan, balki ularning moddiy sharoitlarini, ta'lim muassasasining, oilaning o'z-o'zini iqtisodiy ta'minlashlarini shakl yaxshilanishiga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 31-62 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:Sharq, 1997. 20-29 b.
3. Karimov I.A. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmoni. – T.: «Xalq so'zi» gaz. 1996. 16-son.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. –T.: O'zbekiston, 1995. – 23 b.
5. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish davlat yuli bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. T: «Toshk. Oqshomi» gaz. 1997. 2-apr. № 38.
6. Achilov M.O., Ochilova N. O'qituvchi odobi. –T.: O'qituvchi, 1997. – 136 b.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 1991-. –384 b.
8. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy – an'anaviy asoslari. (Metodik tavsiya). –T.: RUMM, 1993. – 20 b.
9. Davlatov K.D., Vorobyev A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi hamda metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. – 319 b.
10. Yuldoshev K.G. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi hunar va mehnat maktabi. – T.: O'qituvchi, 1979.
11. Mazur V.A., Davidova L.G. Milliy hunarmandchilikka o'qitish jarayoni mazmuni va uni tashkil qilish. (metod.tavsiya). –T.: UzPFITI, 1994. – 24 b.
12. Maxkamov S. O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. –T.: O'qituvchi, 1991. – 60 b.
13. Maxkamov U. Axloq va odob saboqlari. –T.: Fan., 1994. – 136.
14. Mirzaaxmedov M.X. Materiallarga badiiy ishlov berish. T.: O'qituvchi, 1976. – 24 b.
15. Mirzaxmedov M.X., Ergashev S. Yog'och uymakorligi. –T.: O'qituvchi, 1995. – 64 b.
16. Muranov B.I. Ishlabch chiqarish praktikasi sharoitida qishloq o'quvchilarining unumli mehnatini tashkil etish. Samarqand. SamSXI. 1989. –77 b.

17. Muranov B.I. Soxibqiron davri: Xalq hunarmandchiligi va ma'naviyat ravnaqi. //Uzluksiz ta'lim tizimida huquqiy, badiiy va mehnat madaniyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. –T.: UzPFITI, 1997. B. 3-10.
18. Muranov B.I. Hozirgi sharoitda yoshlarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida xalq hunarmandchiligining o'rni. //Проблемы становления и профессионального образования. – T.: Fan, 1996. B. 279-284.
19. Tulenov J., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: O'zbekiston, 1996. – 253.
20. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. So'z boshi. V.Tukliyev. -.T: Yulduzcha, 1990. – 189 b.
21. Yax'yoyeva Z.M. O'qituvchilar uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlarning namunaviy ishlanmalari. (ssenariylar).–T.:1994. – 104 b.
22. Quronov M. O'zbek oilasida mehnat va axloqiy tarbiya tarixiga bir nazar. –T.: Taraqqiyot, 1995. – 45 b.
23. Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. –T.: O'qituvchi, 1993. – 114 b.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Ta'lim–tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganishning tarixiy rivojlanishi	
1.1. Xalq hunarmandchiligining paydo bo'lishi va taraqqiyoti.....	10
1.2. Xalq hunarmandchiligi o'rganish va o'rgatish pedagogik muammo sifatida.....	20
1.3. Ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganishning hozirgi davrdagi ahvoli.....	29
2-bob. Umumiy o'rta ta'lim tizimida xalq hunarmand-chiligini o'rganishning mazmuni, tuzilishi	
2.1. 1–9 sinflar mehnat ta'lim darslarida xalq hunarmandchiligini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.....	34
2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv–tarbiyaviy tadbirlarda xalq hunarmandchiligini o'rganishning mazmuni.....	45
2.3. O'quvchilarning mehnat ta'limida xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish darajasini aniqlash mezonlari.....	55
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75